جديد

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

2026-yil 25-sentyabr
№ 39 (143)
www.jadid.uz

@Jadidrasmiy @Jadidmediauz @Jadidrasmiy @Jadid_uz

YETTIKUNLIK



XONOBODDAN ELOBODGACHA

O‘tgan hafta ham mamlakatimiz hayoti sermazmun, tarixiy va tizimli voqealarga boy bo‘ldi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Andijon viloyatiga amalga oshirgan tashrifi, transport-logistika, “Yashil makon”, ma’muriy odil sudlov va energetika sohalariga oid taqdimotlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Saida Mirziyoyeva boshchiligidagi delegatsiyaning BMT Bosh Assambleyasi 81-sessiyasidagi ishtiroki mamlakatimizning yaqin va uzoq istiqboldagi taraqqiyot vektorlarini aniq belgilab beradi.

QORAQALPOG‘ISTON – JADAL O‘SISH MARKAZI

Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi ulkan o‘zgarishlar, evrilishlar har bir yurtdoshimizning qalbiga g‘urur va iftixor bag‘ishlamoqda. Prezidentning Qoraqalpog‘istonga bo‘lgan doimiy e’tibori, hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga qaratilgan aniq maqsadli dasturlar xalqning turmush farovonligini oshirishga xizmat qilayotir. Prezidentimizning “Biz uchun Qoraqalpog‘iston yutug‘i – O‘zbekiston yutug‘i, Qoraqalpog‘iston tashvishi bu − butun O‘zbekiston tashvishi”, degan gaplari hamisha amaliy harakat dasturi bo‘lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi. Davlatimiz rahbarining 18-19-sentyabr kunlari Qoraqalpog‘istonga tashrifi buning yaqqol isboti bo‘ldi.

Qoraqalpog‘iston “yashil” energetika, agrar sohada ishlab chiqarish va turizm markaziga aylanmoqda. 10 GVtdan ortiq “yashil shamol energiyasi” ishlab chiqarish bo‘yicha loyihalar ishlab chiqilmoqda – bu mintaqani mamlakat ichidagi energiya eksportchisiga aylantiradi va elektr energiyasi narxini pasaytiradi.

(Davomi 2-sahifada).

MILLAT FIDOYILARI

QORAQALPOG‘ISTONDA JADID HARAKATI



Turkiston jadid harakati tarixida Qoraqalpog‘iston hududida faoliyat olib borgan ma’rifatparvarlar alohida o‘rin tutadi. O‘zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan 1910-yilgi Xiva xonligidagi bekliklar, aholi soni, yer hajmi, milliy tarkibi va kimlar hokimlik qilayotganiga oid ro‘yxatga olish materiallarida 27 ta ma’muriy bekliklar qatorida, Xo‘jayli va Qo‘ng‘irotga oid statistika ham keltirilgan. Unga ko‘ra, Xo‘jaylida 60 ming tanob yer bo‘lib, ikki ming xonadonda o‘rtacha 7 kishidan istiqomat qilgan. Hududda 45 yoshli Avazbiyxo‘ja Murtazabiy 20 yillik tajribaga ega hokim edi. Bu muhim strategik hududlarda nafaqat iqtisod, savdo, agrar soha, balki ta’lim ham rivojlangan bo‘lib, xususan, jadid maktablari istiqbolli soha sifatida faoliyat ko‘rsatardi.


(Davomi 7-sahifada).

FAKT

- **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Yoqilg‘i-energetika tarmog‘ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonni imzoladi.**
- **Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi xabar berishicha, O‘zbekistonda kambag‘allik darajasi 3,9 foizgacha qisqardi.**
- **Toshkent shahrida Turkiy davlatlar tashkilotining I Texnologiyalar forumi o‘tkazildi.**
- **XX Osiyo o‘yinlarida merganimiz Vladimir Svechnikov 10 metr masofadan pnevmatik to‘pponcha bilan otish dasturida oltin medalni qo‘lga kiritdi va 244,3 ochko bilan Osiyo o‘yinlari rekordini yangiladi.**

TERAN TOMIRLAR

INTERNETNI YENGGAN KOSHG‘ARIY



1988-yilning yoz oylarida Samarqand viloyatining Qizilkarvon (eski nomi Quyi Ingichka) qishlog‘i, Ashrafsoy etaklari, qadimiy Budrach manzilgohi, Niyoztepa, Omontepa, Eshmontepa yodgorliklarini tadqiq etish uchun olis Leningrad (Sankt-Peterburg)dan bir guruh tarixchi va arxeologlar keladi.

ASIL KO‘MCHU SO‘ZLARIM

Keksalarning guvohlik berishicha, o‘shanda ma’lum muddat Budrachda qazishma ishlari olib borilib, bir qancha osori-atiqalar topilgan. Kunlar sovigach, tadqiqotchilar yana kelishlarini aytib, yurtiga qaytib ketadi. Biroq keyinchalik sobiq Ittifoq tarqab ketgani tufaylimi yoki boshqa sababdanmi, hududda izlanishlar shu bo‘yi to‘xtab qoladi.

Oradan yillar o‘tib, yoshi ulug‘lardan bu gaplarni eshitgach, qiziqib qoldim: tadqiqot natijalari qanday bo‘lgan ekan, bu haqda biror joyda e’lon qilinganmikan?.. “Budrach” – nima degani o‘zi, bu g‘alati nom kim yoki nimaning sharafiga qo‘yilgan?

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ga kiritilmagan. Tarkibida ***ch*** tovushining mavjudligiga qaraganda, arabcha ham emas (arab tilida ***ch*** harfi yo‘q).

Eskidan eski imorat qoldiqlari, bir necha gektar yerni qamrab olgan qadimiy devor xarobalari, har qadamda uchraydigan sopol siniqlari, pishiq g‘isht bo‘laklari bu yerning bir zamonlar chog‘roq qal’a yoki o‘rtacha karvonsaroy bo‘lganidan dalolat berardi.

Bir tarafdan yoshlik shavqi, boshqa tomondan ko‘p yillardan buyon o‘zimni qiynab kelgan savollarga javob topilar, Budrachimiz haqida bir enlik ma’lumot chiqib qolar, degan umidda internetni ko‘p titkiladim, tarix kitoblarini varaqladim.

(Davomi 4-5-sahifalarda).

VATAN MANZUMASI

Muhammad ALI

BUGUN ANDIJONNI KO‘RING

**Yuksaklarda – samolarda
Qushlar uchar havolarda,
Chirqillashar, aylab gurung:
“Bugun Andijonni ko‘ring!”**

**Shabboda ham mayin yelar,
Bo‘stonlardan esib kelar...
Siz ham yo‘lni bu yon buring!
Bugun Andijonni ko‘ring!**

**Andijonni hech ko‘rmabsiz –
Hali dunyoga kelmabsiz...
Keling, qandingizni uring:
Bugun Andijonni ko‘ring!**

**Elda borar zo‘r tantana:
Yurtboshimiz kelmish, mana!
Ozod hayot gashtin suring,
Bugun Andijonni ko‘ring!**

**Qavat-qavat binolar mo‘l,
Naq jannatga borar bu yo‘l.
Bobur Mirzo o‘tmish burun,
Bugun Andijonni ko‘ring!**

**Mehmon kelar yiroqlardan,
Ko‘cha yashnar bayroqlardan.
Dillar, dillar-ey, jo‘sh uring!
Bugun Andijonni ko‘ring!**

**Ko‘k somsalar dasturxonda,
Anjan palov bir tomonda...
Choyxonada gashtak quring,
Bugun Andijonni ko‘ring!**

**Yashnagan muhtasham gul bog‘
Vatan ko‘ksidagi bir tog‘!
Qaynab toshar zavq-sururing
Bugun Andijonni ko‘ring!**

**Oh, Andijon, ona yurtim!
Sen bor, – bolta kesmas murtim!
Nurga to‘lsin mangu umring!
Bugun Andijonni ko‘ring!
Yangi Andijonni ko‘ring!
Hur O‘zbekistonni ko‘ring!**

ILM YO‘LI

TUGANMAS QUVVAT MANBAYI

Akademik Qahramon ALLAYEV bilan suhbat

– Domla, bolalikdan katta ilm-fan sari boshlangan yo‘lingizga nazar tashlasak, energetika sohasini tanlashingizga undagan omillar nimada?

– 1963-yilda Xiva shahridagi maktab-internatning o‘zbek guruhini tamomlaganman. Maktabni oltin medal bilan bitirib, Moskva energetika institutiga o‘qishga kirdim. Ko‘pchilik, ayniqsa, shogirdlarim: “Domla, o‘zbek maktabini tamomlab, qanday qilib Moskva energetika institutiga kirdingiz? U yerda darslar rus tilida-ku”, deb so‘rashadi. Men shunday javob beraman: bizning sohamizda, umuman, texnika va energetikada asosiy fanlar matematika, fizika, kimyo hisoblanadi. Bu fanlarning formulalari esa qaysi tilda yozilishidan qat’i nazar, bir xil. Matematikadan, fizikadan imtihonlarni yaxshi baholarga topshirganim uchun institutga o‘qishga kirdim. 1963-yili talaba bo‘lib, 1969-yilda institutni tamomladim.

(Davomi 3-sahifada).

ANJUMAN

YANGI O‘ZBEKISTON *mushoirasi*

Milliy davlatchiligimiz tarixida ma’rifatparvar hukmdorlar xayrixohligi bilan o‘z davrining yetuk shoirlari ishtirokida mushoiralar o‘tkazib turilgan. Temuriylar davrida, xususan, Sulton Husayn Mirzoning nafis majlislari hazrat Alisher Navoiy nuri bilan fayziyob bo‘lgan. Xonliklar davrida ham bu an’ana davom etdi. O‘zlari nozikta’b shoir bo‘lgan xonlar – Amir Umarxon va Muhammad Rahimxon Feruz saroylari ham “shoir-u she’r-u shuur” shukuhiga to‘la bo‘lgani haqiqat. Ichan qal’aning adl minorlari, feruza gumbazlari aro shu dargohda yuz yilning nari-berisida Munis, Ogahiy, Komil Xorazmiy, Avaz O‘tar g‘azallari yangrab turgan.

(Davomi 2-sahifada).



XONOBODDAN ELOBODGACHA



Boshlanishi 1-sahifada.

2030-yilgacha jami 3 ming 300 megavattli shamol stansiyalarini ishga tushirish, “yashil” energiya ulushini 76 foizga yetkazish va 400 megavattli energiya saqlash quvvatini yaratish rejalashtirilgan.

Qishloq xo‘jaligi mahalliy udum va sharoitga ko‘ra qayta ishlash va chorvachilikka yo‘naltiriladi. 10 yil ichida go‘sht va sut ishlab chiqarish 3 barobar oshishi kutilmoqda. Kunjut va mosh kabi yangi ekinlarni rivojlantirish Turkiya va Saudiya Arabistoni eksport bozorlariga yo‘l ochadi.

Tibbiyotda yuqori texnologik xizmatlar kengaymoqda. Nukusda jigar va buyrak transplantatsiyasi amalga oshirilmoqda, Orolbo‘yi bolalar shifoxonasida 150 turdagi yuqori texnologik xizmat ko‘rsatilyapti.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning boshqaruv konsepsiyasi oddiy, lekin ulug‘vor: inson qadri hamma narsadan ustun. Yillar davomida yakkahokimlik ostida ezilgan paxtakor endi mehnatining evaziga rohat ko‘radi. Majburiy mehnat tarixga aylandi. Dehqon yerga egalik qiladi, fermer hosilini o‘zi sotadi. Bu shunchaki qog‘ozdagi islohot emas, balki inson sha’nining tiklanishidir. Paxta bugun kiyimga aylanib, eksportga chiqmoqda. Fermerlar hayotidan mamnun, bolalar dalada emas, maktabda.

Tashrif davomida 7 milliard dollarlik 47 ta loyiha qurilishiga start berildi. Jumladan, Qo‘ng‘irotda 2 milliard 600 million dollarlik quvvati 1,5 ming megavattli shamol stansiyasi barpo etiladi. Loyiha doirasida 1,5 ming kilometr yuqori kuchlanishli tarmoq va 500 kilovoltli 3 ta podstansiya quriladi. 2030-yilgacha jami 3 ming 300 megavattli shamol stansiyalarini ishga tushirish, “yashil” energiya ulushini 76 foizga yetkazish va 400 megavattli energiya saqlash quvvatini yaratish rejalashtirilgan.

Xullas, yaqin paytlargacha o‘z holiga tashlab qo‘yilgan Qoraqalpog‘iston imkoniyatlar o‘lkasiga aylandi.

GLOBAL TRANSPORT – LOGISTIKA XABI

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotining shiddatli o‘sishi, sanoat ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi va tashqi savdo geografiyasining diversifikatsiya qilinishi zamonaviy, ishonchli va ko‘p tarmoqli transport infratuzilmasini talab etmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev transport-logistika sohasidagi yirik strategik loyihalarning borishi yuzasidan o‘tkazilgan taqdimot bilan tanishdi. Unda belgilangan vazifalar va maqsadlar O‘zbekistonni ikki tomonlama dengizga chiqish yo‘li bo‘lmagan mamlakatdan Tinch okeanidan to Yevropagacha bo‘lgan eng qisqa va xavfsiz quruqlik ko‘prigiga aylantirishdek ulkan tarixiy missiyani ochib berdi.

Temiryo‘l transporti O‘zbekiston eksport va importining 80 foizdan ortig‘ini tashib beruvchi temir karvon hisoblanadi. Sanoat yuklari ortgani sababli tarmoqning asosiy bo‘g‘inlari modernizatsiya qilinadi. Maqtaaral – Sirdaryo, Angren – Pop, Toshg‘uzor – Boysun – Qumqo‘rg‘on, Toshkent – Samarqand va To‘qimachi – Angren temiryo‘l uchastkalari modernizatsiya qilinib, o‘tkazuvchanlik 25–30 foizga oshiriladi.

Asr loyihasi bo‘lmish “Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston” temiryo‘li qurilishi, Toshkent – Samarqand yo‘nalishida alohida yangi yuqori tezlikdagi temiryo‘l barpo etish hamda xususiy sektor ko‘magida yuk vagonlari parkini yangilash loyihalari jadallashtiriladi.

Bu – milliy tadbirkorlarimizga jahon bozorlarini eng qisqa, arzon va ishonchli yo‘llar bilan ochib berish, yangi ish o‘rinlari yaratish va O‘zbekistonni mintaqaning eng yirik tranzit markaziga aylantirishning mustahkam poydevoridir.

“YASHIL MAKON”: MIQDORDAN SIFATGA

Prezident Shavkat Mirziyoyev “Yashil makon” umummilliy loyihasini yangi bosqichga olib chiqish, mahallalarda aholi uchun qulay ekologik muhit yaratish va innovatsion yechimlarni joriy etish yuzasidan o‘tkazilgan taqdimotda ushbu muammolarni keskin ko‘tarib, ekologiya sohasini son ko‘rsatkichlaridan sifat va ilmiy asoslangan natijadorlikka o‘tkazish bo‘yicha konseptual vazifalarni belgilab berdi.

Davlatimiz rahbari ko‘kalamzorlashtirish ishlarining samaradorligini baholashda balandparvoz raqamlardan voz kechish vaqti kelganini ta’kidladi. Endilikda asosiy mezon – ekilgan ko‘chatlarning bir, uch va besh yildan keyingi holati va tutib ketish darajasi bo‘ladi. Shu munosabat bilan ko‘kalamzorlashtirish to‘liq ilmiy asosda tashkil etiladi.

XALQ XIZMATIDA

Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim tayanchi – bu fuqaro va tadbirkorlarning davlat idoralari oldidagi teng huquqi, ularning qonuniy manfaatlari mustahkam va ishonchli sud himoyasida bo‘lishidir.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ma’muriy odil sudlovni yangi bosqichga olib chiqish istiqbollariga bag‘ishlangan taqdimot bilan tanishdi. Ushbu taqdimotda ilgari surilgan konseptual takliflar mamlakatimizda ma’muriy sudlar vakolatlarini tubdan kengaytirish, fuqarolar huquqlarini proaktiv (oldindan) himoya qilish hamda mansabdor shaxslar mas’uliyatini oshirishga qaratilgan mutlaqo yangi huquqiy davrni boshlab bermoqda. Endilikda sohada ilg‘or xorijiy tajriba asosida 15 ga yaqin yangi huquqiy institutni joriy etish rejalashtirilyapti. Bu o‘zgarishlar ma’muriy sudlovning nafaqat shaklini, balki mazmun-mohiyatini yangi pog‘onaga ko‘taradi.

Ma’muriy sudlovni isloh qilish bo‘yicha Prezidentimiz tomonidan ma’qullangan yangi qadamlar inson qadri va mulk daxlsizligini ta’minlashda tarixiy ahamiyatga ega. Bu islohotlar davlat apparatini yanada ochiq, qonunga itoatkor va fuqaroga hurmat bilan qarashga o‘rgatadi. Eng muhimi, odil sudlov endilikda fuqaro va tadbirkorning muammosi ketidan quvib yuruvchi emas, balki ularning qonuniy huquqlarini oldindan himoya qiluvchi chinakam adolat qo‘rg‘oniga aylanadi.

ENERGETIKA STRATEGIYASI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida elektr energetikasini rivojlantirish istiqbollari



hamda sohadagi loyihalarni boshqarish mexanizmlarini tubdan takomillashtirishga bag‘ishlab o‘tkazilgan taqdimot mamlakatimizning yaqin va uzoq muddatli energetiklari iqtisodiy strategiyasini ochib berdi. Taqdimotda ilgari surilgan g‘oyalar va raqamlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston endilikda energetikada kunlik muammolarni hal qilish bosqichidan o‘tib, talabdan oldinda yuruvchi, yuqori texnologik va bozor tamoyillariga asoslangan strategik rejalashtirishga to‘liq o‘tmoqda. 2030-yilga borib O‘zbekiston iqtisodiyoti hajmi 300 milliard dollarga yetishi, aholi soni esa 41 milliondan ortishi kutilmoqda.

TARAQQIYOT CHORRAHASIDA

Ayonki, Andijon mamlakatimizdagi hududi eng kichik, aholisi esa eng zich viloyat hisoblanadi. Viloyat respublika hududining 1 foizini, aholisi esa qariyb 10 foizini tashkil qiladi. Shuning uchun ham Andijonda yerning har qarichidan oqilona foydalanish talab etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Andijon viloyatiga qilgan tashrifi hudud iqtisodiyotida chinakam sanoat, investitsiya, innovatsiya va infratuzilmaviy inqilob davrini boshlab berdi. Yangilangan xalqaro aeroportdan tortib, sun’iy intellekt bilan jihozlangan to‘qimachilik korxonalari, mikrogidroelektr stansiyalari, ishlab chiqarish, sun’iy intellekt markazlari va infratuzilmaviy mega-loyihalar Andijonning nafaqat Farg‘ona vodiysi, balki butun mamlakat miqyosidagi strategik ahamiyatini yangi bosqichga ko‘tardi.

Prezidentimiz Andijon viloyatiga tashrifi doirasida yangi investitsiya loyihalarini ishga tushirish va ularning qurilishiga start berish marosimida ham ishtirok etdi. Marosimda umumiy qiymati 9 milliard 400 million dollar bo‘lgan 206 ta loyiha qamrab olindi. Shundan 2 milliard 50 million dollarlik 98 ta loyiha ishga tushirildi, 7 milliard 350 million dollarlik 108 ta loyihaning qurilishi boshlandi.

Tashrif yakunida Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va aholi daromadlarini oshirish masalalari bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazildi.

Eng assosiysi, tashrif davomida qabul qilingan qarorlar, amalga oshirilgan va start berilgan mega-loyihalar viloyatni sanoat, yuqori texnologiyalar, “yashil” energetika va logistika sohasida Markaziy Osiyoning eng ilg‘or va jozibador hududlaridan biriga aylantirishi shubhasiz.

GLOBAL DIPLOMATIYA

Nyu-York shahrida BMT Bosh Assambleyasining 81-sessiyasi doirasidagi yuqori darajali haftalik o‘z ishini davom ettirmoqda. Dunyoning diqqat markazida bo‘lib turgan mazkur global anjuman xalqaro munosabatlar tizimidagi eng nozik va murakkab jarayonlarni muhokama qilish, dunyo kelajagini belgilovchi muhim qarorlar qabul qilish uchun asosiy minbar hisoblanadi.

22-sentyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Saida Mirziyoyeva BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish bilan uchrashdi. Uchrashuv chog‘ida O‘zbekiston va BMT o‘rtasida barqaror rivojlantirish maqsadlari, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish, inson huquqlarini himoya qilish hamda Markaziy Osiyoda yaxshi qo‘shnichilik va xavfsizlikni ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan qo‘shma loyihalar va hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari muhokama qilindi. BMT rahbariyati O‘zbekistonning mintaqaviy integratsiyani kuchaytirish, Orolbo‘yi mintaqasida ekologik va gumanitar vaziyatni yaxshilash borasidagi tashabbuslarini doimiy ravishda yuqori baholab kelishi bugungi kunda O‘zbekiston – BMT munosabatlari naqadar ishonchli va strategik tus olganini ko‘rsatadi. O‘zbekistonning bunday nufuzli global jarayonlarda faol qatnashishi, mamlakatimizning tashqi siyosatdagi ochiqlik, konstruktiv hamkorlik va tinchliksevarlik tamoyillariga sodiqligining yana bir yorqin isbotidir.

23-sentyabr kuni Saida Mirziyoyeva BMT Bosh Assambleyasining 81-sessiyasida o‘zbek tilida nutq so‘zlab, O‘zbekistonning tinchlik va xalqaro huquq bo‘yicha pozitsiyasini bayon qildi. U mamlakatning BMT Xavfsizlik kengashiga nomzodi, Qo‘shilmaslik harakatiga raisligi, Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va global muammolar bo‘yicha tashabbuslarini ma’lum qildi. Shuningdek, Administratsiya rahbari xalqaro siyosiy vaziyatga baho berarkan: “Bizga faqat qaror qabul qiladigan emas, qarorlarni amalga oshirishga qodir BMT kerak. Bizga har bir davlatning ovozi eshitiladigan BMT kerak”, – deb ta’kidladi.

* * *

Ushbu hafta voqealari va Davlat rahbari ilgari surgan tashabbuslar Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining muhim bir falsafasini ochib beradi. Rivojlanish faqat bugungi kun muammolarini hal etish emas, balki o‘n yillardan keyingi avlod farovonligini kafolatlovchi mustahkam poydevor qurishdir. Xonoboddan Elobodgacha amalga oshirilayotgan mazkur islohotlar mamlakatimizning milliy mustaqilligi va global raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Iqbol MIRZO

YANGI O‘ZBEKISTON *mushoirasi*

Boshlanishi 1-sahifada.

Keyingi davrlarda ham Xorazm tuprog‘i ne-ne sohibi qalamlarni dunyoga berdi. Ana shu ulug‘lar yoqqan olovlar qo‘ri bugun yosh ijodkorlar qalbini alangalatmoqda.

* * *

Xabaringiz bor, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev joriy yilning 17-18-avgustida Xorazm viloyatiga tashrif buyurdi. Jarayonda Xiva shahrida yangi barpo etilgan Kongress-xoll, uch yulduzli mehmonxona hamda “Xiva Ichan qal’a” qabullar uyi faoliyati bilan tanishdi. Davlatimiz rahbari shu yerning o‘zida Xorazm viloyati jamoatchiligi vakillari bilan samimiy muloqot qildi. Suhbatda keyingi yillarda vohada ro‘y berayotgan ulkan o‘zgarishlar, odamlarning turmush tarzi va tafakkuridagi yangilanishlar haqida so‘z bordi. Qadimiy Xorazm zaminida Yangi O‘zbekistonning bunyodkorlik, taraqqiyot va yangilanish ruhi tobora yaqqol namoyon bo‘layotgani ta’kidlandi. Viloyatning boy tarixi va an’analarini asrab-avaylagan holda, uni zamonaviy, obod va farovon hududga aylantirish yo‘lidagi ishlar izchil davom ettirilishi qayd etildi. Adabiy an’analarga esh o‘laroq, Xivada “Yangi O‘zbekiston





mushoirasi” nomli yirik adabiy anjuman o‘tkazish taklifi ilgari surilgani ilhom bulog‘i qaynab turgan ahli ijod uchun ayni muddao bo‘ldi. Mazkur mushoira 17-sentyabrda ko‘tarinki ruhda o‘tkazildi.

Tadbir nafaqat ijodkorlarni bir maydonga jamlagan an’anaviy uchrashuv, balki zamonaviy o‘zbek she’riyatining bugungi nafasini, ruhi va yo‘nalishini namoyish etuvchi ma’naviy-ma’rifiy voqeaga aylandi. Mushoiraning ochilish marosimida Xorazm viloyati hokimi o‘rinbosari Botir Saidov viloyat hokimi Jo‘rabek Rahimovning tabrik xatini o‘qib eshittirdi. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi o‘rinbosari Minhojiddin Mirzo so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan adabiy islohotlar munosabati bilan ijodkorlarni qutladi.

Anjumanda O‘zbekiston xalq shoirlari Usmon Azim, Mahmud Toir, Xosiyat Bobomurodova, Qoraqalpog‘iston xalq shoiri Rustam Musurmon, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimlari Farida Afro‘z, Zebo Mirzo, Munavvara Usmonova, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist Salim Ashur, taniqli shoirlar Gavhar Ibodullayeva, Mehribon Abdurahmonova, Ibodat Rajabova, Sayyora Samandar, Xurshida Vahobjon qizi, Shodmon Sulaymon, Muhammadsiddiq Rahmatov va boshqalar o‘z fikrlarini bayon etib, ijodiy ishlaridan namunalar taqdim qildi. Atoqli adibimiz Abdulla Qahhor ta’biri bilan aytganda, katta polvonlar o‘rtaga tushmasa, davra qizimaydi. Ustozlardan keyin minbar Yangi O‘zbekistonning navqiron ijodkorlariga berildi. Yigit-qizlar yangi va yaxshi she’rlarini o‘qidi. Bu – mushoiraga avlodlar davomiyligi va adabiy an’analarning yangi nafas bilan boyib borayotganidan dalolat beruvchi alohida ma’no bag‘ishladi. Xususan, Nargiza Odinayeva, Sitorabonu Shomurodova, Rahmat Bobojon, Islom Ali, Muhammadali G‘afforov, Nurmuhammad Abduzoir chiqishlari gulduros qarsaklar bilan olqishlandi.

She’riy chiqishlar Vatanga muhabbat, milliy o‘zlik, inson qadri va ma’naviy qadriyatlarni asrab-avaylash mavzulariga bag‘ishlandi.

“Yangi O‘zbekiston mushoirasi” – shunchaki navbatdagi adabiy uchrashuv emas. Bu mushoira zamonaviy o‘zbek she’riyatining bugungi ruhini, izlanishlari va yo‘nalishini aks ettiruvchi, ustoz va shogirdlarni bir maydonda jamlagan ma’naviy-ma’rifiy tadbir sifatida alohida ahamiyat kasb etdi. Adabiyotning ezgu so‘zi, ijodkorlarning samimiy tuyg‘ulari uyg‘unlashgan anjumanda ona Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga ehtirom va yurtimizdagi yangilanishlar ruhi o‘zining yorqin badiiy ifodasini topdi.

Abbosbek SHOYIMOV

TUGANMAS QUVVAT MANBAYI

Akademik Qahramon ALLAYEV bilan suhbat

Boshlanishi 1-sahifada.

O‘sha paytda energetika bugungidek rivojlangan soha emas edi. Yoshlarni muayyan kasbga yo‘naltirishda pedagoglarning roli juda katta. Menga ham matematika fanidan dars bergan, marhum ustozimiz To‘lqin Otaboyev: “Sen energetik bo‘lishing kerak”, deb ko‘p aytardi. Nega aynan energetika? Chunki quruvchining g‘isht qo‘yishini, metallurgning metall quyishini ko‘rish mumkin. Energetikada esa simdan o‘tayotgan tokni ko‘rmaysiz. Uni faqat tafakkur, fikrlash orqali anglash va boshqarish mumkin. Ustozimning shu tavsiyasi menga katta turtki bo‘lgan. Oradan yillar o‘tib, energetik bo‘ldik, shu sohada ancha ishlarni amalga oshirdik. Bugun esa mamlakatimiz energetikasi bilan shug‘ullanib, o‘zimizning ilmiy maktabimizni yaratdik. Shogirdlarimiz bu ishlarni davom ettirmoqda.

Hozirgi yoshlar juda iqtidorli va iste’dodli. Masalan, bizda doktorlik dissertatsiyalari himoyasi bo‘yicha ilmiy kengash bor. Uning 21 nafar a’zosidan 16 nafari aynan shu kengashda dissertatsiya himoya qilib, fan doktori ilmiy darajasini olgan. Ular 35-42 yosh oralig‘ida. Bu, albatta, quvonarli holat. Chunki ilm-fan, ishlab chiqarish yoki boshqa har qanday sohaning rivojini, avvalo, yangi avlod ta’minlaydi. Shu bois, iqtidorli yigit-qizlarni topish, ularni yuzaga chiqarish, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish juda muhim. Maktabdagi ustozlarning bu boradagi mehnati, ayniqsa, beqiyos. Hozirgi yoshlar ham o‘ziga xos, shuning uchun ularga to‘g‘ri yo‘nalish berish oson emas. Ammo o‘z vaqtida berilgan birgina maslahat ham bolaning butun hayot yo‘lini o‘zgartirishi mumkin.

Yoshlar, avvalo, matematika, fizika, kimyo kabi fundamental fanlarni chuqur o‘rganishi kerak. Chunki texnika va texnologik rivojlanishning asosi shulardir. Biroq buning o‘zi yetarli emas. Umumiy dunyoqarash ham keng bo‘lishi kerak. Ular tarixni, adabiyotni, mamlakatda va dunyoda yuz berayotgan jarayonlarni ham bilishi zarur. Insonning dunyoqarashini kengaytirish, unda ilmga va hayotga qiziqish uyg‘otish, avvalo, maktabdan boshlanadi.

– Ilmiy izlanishlaringiz energetika tizimlarining turg‘unligi va ishonchliligiga bag‘ishlangan. Bu tadqiqotlarning amaliy foydalari qaysi jabhalarda ko‘rinyapti?

– Energetikaning inson hayotidagi ahamiyatini tasavvur qilish uchun elektr energiyasi yarim soatga o‘chib qolgan holatni o‘ylab ko‘rishning o‘zi kifoya. Deyarli barcha jarayonlar to‘xtab qoladi. Shuning uchun energetika sohasida ishlaydigan muhandislarning eng asosiy vazifasi – iste’molchiga elektr va issiqlik energiyasini kerakli vaqtda, kerakli miqdorda va sifatli yetkazib berishni ta’minlash. Iste’molchini energiya qayerda ishlab chiqarilgani yoki qayerda qanday avariya yuz bergani qiziqtirmaydi. Unga kerak bo‘lgan paytda elektr energiyasi bo‘lishi kerak. Demak, energetiklarning asosiy maqsadi – tizimning ishonchliligini ta’minlash.

Ana shu uzluksizlikni ta’minlash uchun qayta tiklanuvchi quvvat manbalariga murojaat etishimiz kerak. Uning eng muhim afzalliklaridan biri – atrof-muhitga an’anaviy yoqilg‘ilar kabi zarar yetkazmaydi. Shu bois, mamlakatimizda ham bu yo‘nalishga katta e’tibor qaratilmoqda. Kelajakda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish yanada kengayadi. Bu, bir tomondan, atrof-muhitni asrashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, tabiiy gaz kabi qimmatli resurslarni tejash imkonini beradi. Gazni shunchaki yoqib yuborish o‘rniga, undan boshqa sohalarda, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan mahsulotlar ishlab chiqarishda foydalanish mumkin.

Bir olimning juda obrazli gapi bor: neft va gazni shunchaki yoqish – pulni o‘choqqa tashlash bilan barobar. Shuning uchun mavjud resurslardan oqilona foydalanish kerak. Bizga berilgan quyosh va shamol energiyasidan imkon qadar keng foydalanish esa shu nuqtayi nazardan juda muhim. Albatta, bu borada texnologiyalarni ham takomillashtirish zarur. Masalan, turli energiya manbalarining foydali ish koeffitsiyenti bir xil emas. Shuning uchun quyosh va shamol energiyasidan olinayotgan resursni imkon qadar samarali o‘zlashtirish, uni iste’molchiga ishonchli yetkazib berish bugungi energetika oldidagi muhim vazifalardan biridir.

– Siz energetika sohasiga turli siyosiy davrlarda qanday munosabatda bo‘linganiga guvoh bo‘lgansiz. So‘nggi yillarda ushbu tizimda qanday o‘zgarishlar yuz berdi?



– Har qanday katta o‘zgarish qadamma-qadam amalga oshadi. So‘nggi yillarda energetika ta’minotini yuqori darajaga ko‘tarish, eng avvalo, uning ishonchliligini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Buning uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish kengaymoqda.

Quyosh va shamol energiyasining imkoniyatlari katta, ammo ularning bir jihatini ham hisobga olish kerak: kechasi quyosh bo‘lmaydi, shamol esa istalgan paytda to‘xtashi mumkin. Demak, bunday vaziyatlar uchun zaxira energiya manbalarini yaratish zarur. Bu borada gidroelektr stansiyalar, gidroakkumulyatsion stansiyalar va akkumulyator batareyalari muhim ahamiyatga ega. Masalan, gidroakkumulyatsion stansiyalarda suvdan qayta foydalanish orqali energiyani zaxiralash va kerakli vaqtda undan foydalanish mumkin. Mamlakatimizda bunday stansiyalarni barpo etish ishlari ham boshlangan. Bu energetika tizimining barqarorligini ta’minlashda muhim qadam.

Shu bilan birga, energetikada bazaviy energiya manbalari ham bo‘lishi kerak. Bunga issiqlik va atom elektr stansiyalari kiradi. Atom elektr stansiyasi doimiy ravishda energiya ishlab chiqarishi bilan muhim. Hozir mamlakatimizda atom energetikasini rivojlantirish bo‘yicha ham katta ishlar olib borilmoqda. Demak, kelajak energetikasida quyosh va shamol kabi o‘zgaruvchan manbalar, issiqlik va atom stansiyalari kabi bazaviy manbalar hamda gidroakkumulyatsion stansiyalar va akkumulyatorlar kabi zaxira vositalari bir-birini to‘ldiradi. Ana shu tizimni to‘g‘ri yo‘lga qo‘ysak, energetika ta’minotining ishonchliligi yanada oshadi.

Biz bu jarayonlarning istiqbolini hisob-kitob qilganmiz. 2030, 2035-yillarda qancha elektr va issiqlik energiyasi kerak bo‘lishi, uni qaysi manbalardan olish mumkinligi bo‘yicha hisoblar mavjud. Hozir bu prognozlarni yanada uzoq muddatga – 2050-yilgacha ishlab chiqyapmiz. Buni energetikada “energiya balansi” deyiladi. Har qanday katta ish oldindan rejalashtirilgani kabi energetikani ham uzoqni ko‘zlab rejalashtirish kerak. Bu katta tizimlarni boshqaradigan malakali mutaxassislarni tayyorlash bilan bog‘liq. Atom energetikasi rivojlanayotgan ekan, uni kim boshqaradi, degan dolzarb savol turibdi oldimizda. Bugun biz – faoliyat yuritayotgan avlodning o‘rniga ertaga yoshlar keladi. Shuning uchun ularning bilimi juda puxta bo‘lishi kerak. Ishonamanki, o‘zimizning yosh mutaxassislarimiz yetishib chiqib, kelajakda atom stansiyalarini ham, butun energetika tizimini ham muvaffaqiyatli boshqaradi.

– Ilmiy izlanishlaringiz natijalari yirik energetika obyektlarida amaliyotga joriy etilgan. Olim uchun o‘z g‘oyasi hayotda samara berayotganini ko‘rish katta zavq bag‘ishlasa kerak...

– “Avesto” kitobida “ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” degan tushuncha bor. Har qanday katta ish, avvalo, fikrdan boshlanadi. Olim ham biror masalani o‘rganar ekan, uning natijasi amaliyotda qo‘llansa, qandaydir qurilma, texnologiya yoki mahsulotga aylansa, bundan ortiq quvonch bo‘lmaydi.

Moskvada o‘qib yurgan davrimda ustozlarim bilan energetika tizimlarining ishonchliligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar olib bordim. Xususan, yangi turdagi generatorlarning ishlash usullarini ishlab chiqishga bag‘ishlangan tadqiqotlarim keyinchalik amaliyotga joriy qilindi. Bugungi kunda Rossiyada ushbu ishlanmalar asosida yaratilgan yirik elektr mashinalari ishlab turibdi. Ilmiy maqolasiga boshqa olimlar murojaat qilayotgani, tadqiqotidan foydalanayotganini ko‘rish ham olim uchun katta baxt.

Bugun shogirdlarimiz ham shu an’anani davom ettiryapti. Masalan, metallurgiya, to‘qimachilik, kimyo kabi sohalarda energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Ya’ni, mahsulot sifatini pasaytirmagan holda, ishlab chiqarishga sarflanadigan energiyani kamaytirish – energiya samaradorligi degani. Chorvoq GESda ham shogirdlarimizdan biri olib borgan tadqiqot natijasida generator quvvatini oshirish imkoniyati yaratildi. Bunday natijalar ilmiy izlanishlarning amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi.

Shuning uchun yosh olimlarga doim bir narsani uqtiramiz: ilmiy g‘oya qog‘ozda qolib ketmasligi kerak. U imkon qadar hayotga tatbiq etilib, texnologiyaga, qurilmaga, mahsulotga yoki real natijaga aylanishi lozim. Olim uchun asosiy maqsad va katta baxt ham shunda.

– Uzoq yillardan beri nafaqat olim, balki pedagog sifatida ham faoliyat yuritasiz. Shogird tarbiyalash bilan ilmiy izlanish olib borish o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?

– Juda to‘g‘ri aytasiz. Bu, umuman olganda, kadrlar tayyorlashning asosidir. Moskvada o‘qiganimda bizga o‘z sohasining yetuk namoyandalari – Sergey Izbushev, Georgiy Petrov, Irina Litkis, Nikolay Sokolov kabi mashhur akademiklar va olimlar dars bergan. Biz ulardan bilim oldik va bugun o‘sha bilimlarni rivojlantirib, keyingi avlodga yetkazishga harakat qilyapmiz. Ustoz-shogird tushunchasining mohiyati ham shunda. Biz o‘zimiz egallagan bilim va tajribani yoshlarga berishimiz, ularni ilmga qiziqtirishimiz, to‘g‘ri yo‘nalishni ko‘rsatishimiz kerak.

Demak, energetikaning kelajakdagi rivoji ham ko‘p jihatdan bugun qanday kadrlar tayyorlayotganimizga bog‘liq. Shu ma’noda, ustoz-shogird an’anasi – shunchaki bilim berish emas, balki kelajak uchun mutaxassis tayyorlash mas’uliyatidir.

– Ham dars berib, ham ilmiy izlanish olib borish qiyinchilik tug‘dirmaydimi?

– Men buning aksini aytgan bo‘lardim. Yoshlar bilan suhbatlashsangiz, ularning ko‘zidagi qiziqish va berayotgan savollarini ko‘rsangiz, o‘zingiz ham yangi fikrlarga ega bo‘lasiz. Hozir viloyatlarda yoshlar, talabalar, maktab o‘quvchilari bilan uchrashuvlar o‘tkazyapmiz. Ularning savollaridan hayratlanaman. Masalan, Qoraqalpog‘istonda 7-sinf o‘quvchisi menga kosmosdan kelayotgan zarrachalar, ularning xususiyatlari haqida savol berdi. Yana biri atom energetikasini qanday rivojlantirish, uning ishonchliligini qanday oshirish mumkinligini so‘radi. Eng quvonarlisi, hududidan qat’i nazar, yoshlarning savollari mazmunan bir-biriga yaqin. Bu ularning fikrlashi va qiziqishlari to‘g‘ri yo‘nalishda shakllanayotganidan dalolat beradi.

Yaqinda Bo‘zatov tumanidagi bir maktabga bordim. Maktabni 27 nafar o‘quvchi tamomlagan ekan, ularning barchasi oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirgan. Maktab direktoridan buning sirini so‘radim. U menga matematika va fizika fanlaridan kuchli o‘qituvchilarni jalb qilgani, ularga munosib sharoit yaratgani, darsdan tashqari to‘garaklar tashkil etib, bolalar bilan qo‘shimcha shug‘ullanganini aytdi.

Mana, ustoz-shogird an’anasi deganda men shuni nazarda tutaman. O‘qituvchi o‘z bilimini berib, boladagi qiziqishni rivojlantirsa, natijasi, albatta, ko‘rinadi. Hozir maktablarda qo‘shimcha mashg‘ulotlar, to‘garaklar va fanlarga ixtisoslashgan darslar yo‘lga qo‘yilmoqda. Chunki masala faqat bolaning oliy ta’limga kirishida emas. To‘garaklar va qo‘shimcha mashg‘ulotlar uning dunyoqarashi, bilimga qiziqishi va fikrlash doirasini ham kengaytiradi. Buning zamirida, eng avvalo, yaxshi ustoz turadi. Shuning uchun o‘qituvchiga e’tibor berish, uning mehnatini qo‘llab-quvvatlash juda muhim.

Singapur “mo‘jizakor yurt” sifatida dunyoga tanilgan. Uning taraqqiyotiga Li Kuan Yuning ta’lim va o‘qituvchilar mavqeyiga alohida e’tibor qaratgani sabab bo‘lgan. Menimcha, bizda ham ta’lim, ustoz va olimlarga e’tibor kuchaygani kelajakdagi taraqqiyot uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Yangi avlodning bilimi va salohiyati mamlakat kelajagini belgilaydi.

– Hozir atrofingizdagi yoshlarning bilimidan, o‘zlashtirishi va intilishidan qoniqyapsizmi? Shijoatli yoshlar ko‘pmi?

– Ochig‘ini aytish kerak, so‘nggi paytlarda yoshlar uchun yaxshi imkoniyatlar paydo bo‘lmoqda. To‘garaklar, ixtisoslashtirilgan maktablar, Prezident maktablari – bularning barchasi katta imkoniyat. Endi, eng muhimi, shu imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanish va ularni yanada rivojlantirishdir.

Bu yerda ustozlarning mas’uliyati juda katta. Men buni qayta-qayta ta’kidlayapman: o‘qituvchi yoshni to‘g‘ri yo‘naltirsa, uning qiziqishini qo‘llab-quvvatlasa, bilim olishga undasa, natija, albatta, bo‘ladi. Kutubxona, kitob mutolaasi ham juda muhim.

Hozirgi ilm-fan va texnika jadal rivojlanayotgan bir paytda chet tilini bilmagan odam xalqaro ilmiy jarayondan chetda qolib ketishi mumkin. Til bilgan yoshlar xorijiy olimlarning fikrini o‘rganadi, o‘z tajribasini ularga tushuntiradi va yangi bilimlarni ishiga tatbiq etadi. Shuning uchun til – shunchaki qo‘shimcha ko‘nikma emas, bugungi mutaxassis uchun zarur vosita.

– Siz butun umringizni energetika sohasiga bag‘ishladingiz. Sizningcha, insonni hayoti davomida oldinga undab turadigan eng katta energiya manbayi nima?

– Menimcha, bu – intilish. Insonda biror narsani o‘rganish, rivojlantirish va yangi natijaga erishish istagi bo‘lishi kerak. Ammo intilishning asosi – bilim. Shuning uchun bolalarimizning nafaqat texnik bilimini, balki umumiy dunyoqarashini ham rivojlantirishimiz zarur.

Bu jarayon oiladan boshlanadi, maktabda shakllanadi, oliy ta’limda esa yanada rivojlanib, katta yutuqlarga olib kelishi mumkin. Yoshlarni izlanishga, o‘rganishga, fikrlashga o‘rgatishimiz kerak. Pedagogikada bu motivatsiya, ya’ni, insonni ma’lum bir maqsad sari yo‘naltirish, deb ataladi. Bu vazifada ustozning ham, ota-onaning ham mas’uliyati katta.

Yana bir gap. Dunyoda tugamaydigan, kamaymaydigan quvvat manbayi bor. Bu – ilm. Ana shu energiya taraqqiyot g‘ildiragini harakatga keltiradi. Ilm quvvatining qanchaligiga qarab, Vatan va xalq ertasini tasavvur qila olasiz.

– Domla, Sizga ham bitmas-tuganmas hayot quvvati tilab qolamiz. Ilmingiz taratgan nur minglab xonadonlar, yuzlab yoshlarning qalbini munavvar qilib tursin.

Suhbatdosh:
Vasila HABIBULLAYEVA

OLAM OLIMI



Akira YOSINO

elektronika olamida inqilob yasagan nobelchi

HAYOT YO‘LI

Akira Yosino – yapon kimyogari, zamonaviy texnika va elektronika inqilobining asoslaridan biri bo‘lgan litiy-ionli akkumulyatorlarni yaratgan tadqiqotchilardan biri.

U 1948-yil 30-yanvarda Osaka prefekturasi Suita shahrida tug‘ilgan. Kioto universitetining muhandislik fakultetini tugatgan va shu yerda neft kimyosi va amaliy kimyo yo‘nalishi bo‘yicha magistrlik darajasini olgan.

1972-yilda Yaponiyaning yirik kimyo va elektron materiallar konserni – “Asahi Kasei” korporatsiyasiga ishga kirgan. Keyingi butun ilmiy va amaliy faoliyati aynan shu dargoh bilan bog‘liq kechdi. 2005-yil Osaka universitetida doktorlik dissertatsiyasini (PhD) himoya qilgan.

XAVFSIZ AKKUMULYATOR

1970–1980-yillarda olimlar yengil va qayta quvvatlanadigan energiya manbaini yaratish ustida bosh qotirishayotgan edi. Stenli Uittingem va Jon Gudenaf litiy asosidagi batareyalarning konsepsiyasi va katod qismini ishlab chiqqandi. Biroq metall litiyning portlashga kuchli moyilligi tufayli bunday batareyalarni tijoriy maqsadda va xavfsiz ishlatish imkoni bo‘lmagan.

1983–1985-yillarda Akira Yosino tadqiqotlarda tub burilish yasadi. U anod sifatida metall litiy o‘rniga neft koksi – uglerodli materialdan foydalandi. Yosino birinchi marta to‘liq xavfsiz va tijoriy foydalanishga yaroqli litiy-ionli akkumulyator konsepsiyasini yaratdi va patentladi.

Olim yaratgan sistemada batareya ichida kimyoviy reaksiya sabab metall litiy yemirilmaydi. Anod va katod o‘rtasida faqat litiy ionlari harakatlanadi. Bu batareyaning xavfsizligini, chidamliligini va yuqori kuchlanishni ta’minlab beradi.

FAN VA TURMUSH

1991-yilda “Asahi Kasei” va “Sony” hamkorligida Akira Yosino patentlagan texnologiya asosida dunyodagi ilk tijoriy litiy-ionli akkumulyatorlar bozorga chiqarildi. Bu mobil telefonlar, noutbuklar va keyinchalik elektromobillar davrini boshlab berdi.

Ushbu litiy-ionli akkumulyatorlar sababli ko‘chma elektronika va simsiz aloqa rivojlandi. Qayta tiklanadigan energiya manbalarini (quyosh va shamol energiyasini) to‘plash va saqlash imkoniyati kengaydi. Elektromobil sanoati rivojlanib, qazilma yoqilg‘iga qaramlikni kamaytirishga zamin yaratildi.

EKOLOGIYA VA TEXNOLOGIYA

Batareyalar quyosh va shamol elektr stansiyalarida ishlab chiqariladigan elektr energiyasini saqlab, zarur vaqtda undan foydalanish imkonini berishi bilan atrof-muhit ifloslanishini kamaytiradi. Biroq litiy-ion batareyalarini ishlab chiqarish va qayta ishlashda xomashyo resurslari, energiya sarfi va ekologik ta’sir kabi masalalar ham mavjud. Shuning uchun bu sohadagi zamonaviy tadqiqotlar batareyalarning samaradorligi bilan bir qatorda ularni qayta ishlash va yangi materiallardan foydalanish imkoniyatlarini ham o‘rganmoqda.

E’TIROF

Kimyo bo‘yicha 2019-yilgi Nobel mukofoti Jon Gudenaf, Stenli Uittinghem va Akira Yosinoga “litiy-ion batareyalarini rivojlantirgani uchun” berildi.

“Hozirgi kunda ushbu yengil, qayta quvvatlanuvchi va shu bilan birga uzoq xizmat qiluvchi batareya istalgan texnika uchun – uyali telefonlardan tortib noutbuklar va elektromobillarga qadar ishlatiladi”, deyiladi Nobel qo‘mitasi bayonotida.

Jasmina ISROIL tayyorladi.





ASILKO‘MCHU

Boshlanishi 1-sahifada.

Surxondaryo viloyatining Denov tumanida Budrach degan manzilgoh bor ekan, u haqida yaxshi ma’lumotlar chiqdi, lekin Samarqanddagi Budrach to‘g‘risida, taassufki, men ko‘rgan manbalarda lom-mim deyilmagan edi.

Budrach xayoli meni bir zum ham tark etmagan umidli kunlarning birida buyuk Mahmud Koshg‘ariyning atoqli olim Solih Mutallibov tarjimasi asosida Sodiqjon Qosimov nashrga tayyorlagan, 2017-yilda G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etilgan “Devonu lug‘otit turk” (“Turkiy so‘zlar devoni”) asarida **“Budrach”** so‘ziga duch keldim-u tilla topgan gadoydek quvonib ketdim.

Ulug‘ olimning ma’lumot berishicha, **“Budrach – yabaqular begining”** (72-bet), 180-betdagi izohga ko‘ra esa **“yabaqular kattasining oti”** bo‘lgan.

Yana bir o‘rinda muallif **ulug‘, katta, pahlavon** ma’nolarini anglatuvchi **“bo‘ka”** so‘zini izohlar ekan, yabaqular o‘z ulug‘larini, bahodir kishilarni **“bo‘ka budrach”** deb e’zozlashlarini ta’kidlaydi.

Budrach yema qudurdi,
Alpag‘utin o‘durdi.
Susin yana qadirdi,
Kelgalimat irkashur.
(Budrach yana quturdi,
Askarlariga yuzlandi,
Alplarini saralab,
Yurish uchun to‘pladi).

Yabaqu – turkiy elat nomi, “Devon”dagi ma’lumotlardan anglashimizcha, xiyla urishqoq, jangari qavm bo‘lgan. Koshg‘ariy boboning XI asrda yashaganini inobatga olsak, demak, o‘sha zamonlarda yabaqular o‘zlarining mustaqil idora shakliga ega, askarlari soni esa 700 ming atrofida bo‘lgan. Lekin, chamasi, boshqa turkiy qavmlarga nisbatan Islom dinini kechroq qabul qilgan bo‘lishsa kerak, har holda, muallif ularning boshqa bir *musulmon* turk elatiga mag‘lub bo‘lganini aytadi.

Buni qarangki, yillar davomida internetdan izlab topolmagan so‘zimni Koshg‘ariy boboning kitobidan topdim.

TURKIYLAR YARATGAN SIVILIZATSIYA

Bugun hayotimizni avtomobil, kran, kompyuter, printer, telefon, changyutkich, muzlatkich singari zamonaviy texnika vositalarisiz tasavvur etolmaymiz. Kundakunora ularning yangi rusumi chiqib turibdi. Nomlari xorijiy, asosan G‘arb tillarida bo‘lgani bois, bu uskunalarning kashfiyotchilari ham yo amerikalik, yo yevropalik ekaniga shubha qilmaymiz.

Albatta, dunyoda hamma narsa aldashi mumkin, hatto ko‘zimiz bilan ko‘rib turgan narsalarimiz ham bizda yolg‘on taassurot qoldirishi hech gap emas. Biroq So‘z hech qachon aldamaydi.

Koshg‘ariy “Devon”ini mutolaa qilar ekanmiz, unda keltirilgan adabiy-badiiy durdonalar – xalq dahosini namoyon etuvchi maqol va matallar, iboralar, she’r va qo‘shiqlar; chorvadorlik, dehqonchilik, bog‘dorchilik, pazandalik, harbiy san’at, muhandislik kabi turmushning, xalq xo‘jaligining barcha jabhalarini qamrab olgan so‘z va atamalar turkiylarning o‘z vaqtida buyuk va noyob bir sivilizatsiya yaratganidan dalolat beradi.

Masalan, oddiy **shpritsni** olaylik. Vikipediyada yozilishicha, uning bugungi zamonaviy shakli XIX asrda kashf etilgan. Biroq, bilamizki, tibbiyotning tarixi undan ancha qadimiyroq. Shprits ixtiro qilinishidan oldin ham tabiblar qon-tomir bilan ishlagan. Xususan, ajdodlarimiz ming-ikki ming yillar avval ham qon olish (hijoma) bilan shug‘ullangan. Ularning qon oladigan asboblari – shpritslari esa, Koshg‘ariy boboning yozishicha, **so‘rg‘u** deb atalgan.

Bir necha yil oldin taniqli sharqshunos Roiq Bahodirovning X asrda yashagan buyuk olim Abu Abdulloh Xorazmiy haqidagi risolasini o‘qigan edim. Unda muallif Xorazmiy qalamiga mansub “Mafotih ul-ulum” asarining mexanika bo‘limida og‘ir yuklarni ko‘taradigan qurilma (kran) tuzilishi, vazifalari batafsil bayon etilganini yozgan edi.

Demak, ko‘tarma kran ham ajdodlarimiz turmushiga begona bo‘lmagan. Buni “Turkiy so‘zlar devoni”dagi birgina so‘z tasdiqlaydi. Bu – **“ko‘turgu”**. U asarda narsalarni ko‘taradigan uskuna, deb izohlangan.

Shuningdek, “Devon”da keltirilgan **irg‘ag‘** (suvdan muzni muzxonaga tortib oladigan temir changal), **buzluq** (muzxona), **itag‘u** (tegirmon toshi o‘rnatiladigan yog‘och parrak), **tig‘ri** (tegirmon parragi, suv chiqaradigan chig‘iriq parragi, ipak va ip o‘raydigan charx, umuman, har qanday g‘altak), **angut** (voronka), **qirqlum** (o‘lchov asbobi, to‘lganda taxminan 1 kilogramm keladi), **sipak** (tegirmon toshining ustida aylanadigan temir), **yang** (qolip, andoza), **kip** (har narsaning qolipi), **muyandiq** (sardoba), **chechka** (to‘quvchilar tarog‘i), **sali** (andava), **ming‘uy** (yelim) singari muhandislik, hunarmandlik atamalari, **o‘kur** (tariq), **tarig‘** (bug‘doy), **tana** (kunjut), **tarig‘chi** (dehqon) kabi dehqonchilikka doir, **qartal** (ola-chipor qo‘y), **bugrul** (ikki biqini oq ot), **chilgu** (to‘q sariq ot), **bug‘rul** (tomog‘i oq qo‘y), **boshg‘il** (boshi oq mol), **bug‘ro** (tuyaning erkagi), **tetir**, **ingan** (moya, ya’ni, urg‘ochi tuya), **to‘qli** (olti oylik qo‘zi), **tishak** (ikki yashar qo‘y), **boqlon** (yosh, semiz qo‘zi), **chebish** (olti oylik uloq), **turbi** (bir yashar buzoq), **ko‘kan** (buzoq va sog‘in biya arqoni) kabi chorvachilikka oid so‘zlarni o‘qigan kishi ko‘z oldida ming-ikki ming yil oldingi bobolarimiz hayoti, turmush tarzi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Turkiy ajdodlarimiz o‘q-yoyning yog‘och qismini **“ulun”**, olmaxonning oshlangan terisini **“ijuk”**, gipsni **“o‘rungak”**, xazinachini **“img‘o”,** nomsiz barmoqni **“jijamuq”**, sochiqni **“suvluq”,** bosh kiyimni tomoq ostidan bog‘lab qo‘yadigan ipak tasmani **“saqalduruq”**, maqolni **“sav”,** aql tishini **“mung”,** bachadonni **“o‘g‘ulchaq”**, shaharni **“baliq”** (masalan, Xonbaliq – Pekin) deb ataganlarini ko‘rib, hayratga tushdim. Ayni vaqtda ularning osmon jismlari va sayyoralarning har biriga alohida nom qo‘yganlari hayratimni yanada ziyoda qildi.

Bugungi kun tili bilan aytganda, chinakam akademik tadqiqot mahsuli bo‘lgan, tilimizdagi asil ko‘mchu (qimmatbaho boylik, xazina) so‘zlar jamlangan “Devonu lug‘otit turk” barcha turkiy xalqlarning umumiy boyligi, faxr-u iftixoridir.

2024-yili ushbu bebaho asar atoqli qozoq yozuvchisi Muxtor Avezovning nevarasi, mashhur faylasuf, adib, davlat va jamoat arbobi Murat Avezovning qizi – taniqli turkshunos, arabshunos va sharqshunos olima Zifa-Alua Muratovna Avezova tarjimasida, yana bir taniqli qozoq ijodkori, O‘zbekistonda tug‘ilib o‘sgan Rahmatilla Rayimqulovning qizi Oqto‘ti Rayimqulova rahbarligidagi Turkiy madaniyat va meros fondi tomonidan Ozarbayjonning Boku shahridagi “Zərdabi Neşr” nashriyotida, rus tilida, yuksak poligrafik sifat bilan qaytadan chop etildi. (Birinchi nashri – 2005-yili Olmaotada amalga oshirilgan).

Mazkur nashrning o‘ziga xos qimmati shundaki, unda muallif Mahmud Koshg‘ariy haqida (“Об авторе Диван Луғат ат-Турк”), “Devon” yozilgan davr, asarning yaratilish tarixi (“Эпоха создания Диван Луғат ат-Турк”), asar qo‘lyozmalari taqdiri (“О судьбе рукописи “Диван Луғат ат-Турк”), kitob yozilgan davrda turkiylarning musulmon dunyosida tutgan o‘rni (“Тюрки глазами мусульманского мира накануне событий XI века”), bu durdona asarning jahon tilshunosligida o‘rganilishi (“Диван Луғат ат-Турк в исследованиях XX века”), qaysi tillarga qachon tarjima qilinib, nashr etilgani kabi mavzularda o‘ta nodir ilmiy ma’lumotlar taqdim etilgan.

Shuningdek, tarjimon va so‘zboshi muallifi, Zifa-Alua Muratovna Avezovaning turmush o‘rtog‘i, niderlandiyalik zahmatkash olim, sharqshunos va tilshunos Robert Ermers tomonidan tuzilgan turkiy so‘zlarning joriy alifbodagi maxsus indeksi (“Алфавитный индекс тюркских слов”), so‘zlarning astronomiya, iqlimshunoslik, geografiya, mineralogiya, biologiya, zoologiya, botanika, anatomiya, harbiy san’at, ovchilik va boshqa sohalarga oid maxsus tasniflangan ko‘rsatkichi (“Предметный указатель”) kitobxonlar, xususan, Mahmud Koshg‘ariy “Devon”ini chuqurroq o‘rganishga bel bog‘lagan tadqiqotchilar uchun g‘oyat muhim manba bo‘lib xizmat qilishi, shubhasiz.

Quyida turkiy xalqlarning mushtarak kitobi, tariximiz ko‘zgusi bo‘lmish ushbu asardan tanlab olingan ayrim qayroq so‘z va iboralar, maqollarni sizga ham ilinmoqdamiz.

МАХМУД АЛ-КОШГАРИ. “ДИВАН ЛУГАТ АТ-ТУРК”

Iq – икота (O‘zb. hiqichoq).

Im – “пароль, вводимый правителем в своем войске, по названию птицы или оружия; слово, которым перекликаются (воины) при столкновении двух отрядов, так, чтобы каждая сторона знала своих и не нападала на них по ошибке”.

Im bilsa ar o‘lmas (Зная пароль, человек не погибнет). (O‘zb. – **im, imo**. Bobur **“o‘ron”** deb ishlatgan).

Uva – частица, употребляемая как отзыв на обращение. (O‘zb. hovva – xorazm shevasida).

And – клятва (O‘zb. **ont**).

Urt – пожар (O‘zb. **o‘rt, yong‘in**).

Urt – игольное ушко (O‘zb. **ignaning teshigi**).

Ark – власть, исполнение приказа (O‘zb. **saroy, darvoza, peshtoq** ma’nosida).

O‘t – огонь. Пословица:

O‘t tisa ag‘iz kuymas.

(У говорящего “огонь” рот не обжигается. – “O‘t” deb aytganning og‘zi kuymas).

Ug‘ut – название закваски для пива.

Uvut – стыд (O‘zb. **uyat**).

Икат – служанка, которую отправляют прислуживать невесте в свадебную ночь.

Ulut – убийство. Улутжи – убийца. (O‘zb. o‘ldiruvchi, qotil).

Atiz – полоска суши между двумя потоками воды. (O‘zb. **otiz, atiz** – dala, poliz. Xorazm shevasida).

O‘kuz – проточная река, как Жайхун или Фурат.

(O‘zb. Okuz, O‘kuz, yevropachasi – Oks va b.).

O‘bush – обмен поцелуями (между двоими). (O‘zb. **o‘pish**).

Adash – друг.

Ujash – заклад. *U maning birla ujashdi.* (Он бился со мной об заклад).

Adig‘ – медведь (O‘zb. ayiq). **Ayig‘** shakli ham bor.

Azig‘ – клык животного.

Ilig‘ suv – теплая вода.

Achuq – что-либо открытое (O‘zb. **ochiq**).

Ujaq – печь, очаг (O‘zb. **o‘choq**).

Ishaq – что-либо мелкое (**ushoq mol**).

Ushuq – железный шлем (O‘zb. **dubulg‘a**).

Ug‘uq – галоша.

Iviq – антилопа, обитающая в каменистой местности и пустынях.

Abak – дети называют хлеб “абак”.

O‘tuk – доклад или прошение, обращенное к султану. (O‘zb. **“o‘tinch”** shundan bo‘lsa kerak).

Aruk – общее название для персиков, абрикосов и слив, их различают по прилагательным. Так, персики называют тўлук арук, абрикосов – **sarig‘ aruk,** сливы – **kara aruk.**

O‘ruk – что-либо плетенное называют урук. Так, косу называют “ўрук саж”. (**O‘rilgan soch**).

Iruk – брешь в стене.

Пословица:

Kunda iruk yo‘q,
Bakda qiyiq yo‘q.

На солнце (на солнечном диске), нет бреши, а в обещаниях правителя нет обмана.

O‘zak – спинной мозг, т.е. вена внутри позвоночника.

Alik – рука. (O‘zb. **eli, elik**).

Atil – Волга. Название реки земли Кипчаков, впадающей в море Булгар, один из ее притоков протекает через Русь.

Ubum – глоток.

Alim – долг, который причитается с человека.

Irin – губа. (O‘zb. Navoiy, Qodiriy asarlarida bor).

Ushun – лопатка.

Aqin – поток.

Akak ashlar – женщина легкого поведения.

Ukak – ящик, сундук.

Ukak – башня городской стены, оснащенная для боевых действий.

Aj – голодный (o‘zb. **och**).

Пословица:

Aj na yimas,
To‘q na timas.
(Чего не съест голодный?
Чего не скажет сытый?)
Och neni yemas, to‘q neni demas?

Ag‘ – расстояние между двумя бедрами. *Yuz ot manik ag‘din kajti* (Сотня коней прошли между моими бедрами). (O‘zb. **og‘** – og‘i. Shimning og‘i).

Av – дом. (Hozirgi turk tilida **ev** deyiladi).

Ala – прокаженный человек. (O‘zb. **moxov**).

Ayaq, janaq – чаша. (O‘zb. kosa. Chanoq so‘zi ham shundan).

Uya – брат, родственник.

Aba – мать, в огузском. У туркман-карлуков с твердым б (т.е. **апа**). (Hozirgi turk tilida opani **abla** deyishadi).

Aja – то же, что и **ака**, старшая сестра. (O‘TILga ko‘ra, shevada unga o‘xshash **acha** so‘zi bor, buvi ma’nosida).

Aka – старшая сестра. Огузы называют ее **аза**. (Eski o‘zbek tilida – **“oqa”.** O‘ljoy oqa).

Armut – груша (O‘zb. **olmurut** shakli bor).

Azg‘ir – жеребец (O‘zb. **ayg‘ir**).

Arqish – караван.

Uzluq – широкая часть локтевой кости.

Utruk – хитрец (o‘zbek tilining janubiy shevalarida **o‘trik** so‘zi yolg‘on ma’nosida ishlatiladi).

Uchkil – треугольный. (To‘rtko‘l shahri nomining asl ma’nosi ham to‘rt taraf, to‘rt burchak degani. Xuddi “Chorsu”, “chorsi” so‘zlariga o‘xshab).

Utran – брюки.

Ishg‘un – рубаб.

Aviya – айва, один из вариантов.

Azku – хороший (O‘zb. **ezgu**ning asli shu).

O‘g‘loq – козлёнок. (Hozirgi o‘zbek tiliga **uloq** shaklida yetib kelgan. Parkent shevasida hozir ham **“o‘g‘loq”** deb qo‘llanadi).

Ushaq – клевета. Ushaq so‘z – клевета, злословие. (O‘zbek tilining ba’zi shevalarida g‘iybat, bo‘lmag‘ur gap ma’nosidagi **o‘shak** so‘zi bor.

Ubka – легкие. (O‘zb. o‘pka).

Ubka – гнев. Это название основывается на том, что гнев зарождается в легком, они тесно взаимосвязаны, и эта подобно тому, как дождь называют небом (в арабском). (O‘zb. **“o‘pka-gina”, “o‘pkalamoq”**).

O‘tunch – долг.

Man angar yarmaq o‘tunch birdim.
(Я дал ему дирхем в долг).

Arngayu – шестипалый человек.

Arngayu – человек очень маленького роста, в два локтя высотой.

Urag‘ut – женщина.

Alavan – крокодил.

Arg‘ag‘ – рыболовный крючок.

Ikkiz, ikki o‘g‘lon – близнецы.

Alimlig‘. Alimlig‘ er – человек, давший что-либо в долг.

O‘runchaq – вещь, отдаваемая на хранение, в заклад.

Adashliq – дружба.

Arig‘liq – чистота.

Aruqluq – усталость (**horimoq**ning asli shu bo‘lsa kerak).

Anuqluq – готовность.

Atukluk, atukluk sag‘ri – кожа для изготовления обуви.

Utukluk, utukluk kishi – человек, у которого есть просьба к султану.

Uzukluk – прекращение, перерыв.

Isiklik – жар-жара.

Isiklik – любовь, привязанность. *Ko‘ngul isikliki kerak.* – В сердце должен быть жар любви.

Aliklik – перчатки.

Uxi – сова (O‘zb. **ukki**).

O‘tkunch – рассказ. *O‘tkuch o‘tkundi.* – Он рассказал историю.

O‘b – целовать. *Ul mani o‘bdi.* – Он поцеловал меня.

Пословица:

Tashig‘ isrumasa o‘bmish kerak. –

Тот, кто не может укусить камень, должен его поцеловать.

O‘b – пить. *Ar suv o‘bdi.* – Человек выпил воды.

Isir – кусать.

Пословица:

It isirmas, at tabmas tima.

Не говори, что собака не укусит, а лошадь не пнет. – It tishlamas, ot tepmas, dema.

Ashit – слышать.

Пословица:

Qulaq ashitsa, ko‘ngul bilur.
Ko‘z ko‘rsa, o‘dik kalir.

Когда ухо слышит (слово, его) узнает и сердце, когда глаз видит (любимого), просыпается страсть.

Ijtur – поить. (O‘zb. **“ichir”**).

Пословица:

Suv ijurmaska sut bir.

Тому, кто не даст тебе и воды, дай молока.

Ijkar – вводить. (Hozirgi “ichkari” so‘zining asli shu bo‘lsa kerak).

Ig‘lash – плакать.

Alqin – быть исчерпанным; умирать, погибать. **Alqindi nang.** – Что-либо было исчерпано. Er *alqindi.* – Человек умер, погиб. *O‘TILda*: **Olqindi** – sovun qoldig‘i. **Olqindi** qayroq – yeyilib ketgan yupqa qayroq.

Erlanmoq – выходить замуж.

Emlanmoq – лечиться.

Qut – удача; превратность судьбы.

Jir – жир. *Ashijta jir yo‘q.* – В горшке нет жира.

Sir – лак. *Sirlig‘ ayaq.* – Лакированная чаша с узором.

Qir – плотина, вал.

Qir – плоскогорье.

Tuz – что-либо ровное. *Tuz yir.* – Ровная земля.

Quz – теневую сторону гор называют **quz tog‘**, солнце на ней светить лишь после полудня, так как, она остается по левую сторону от солнца. Там холодно и много снега.

Пословица:

Quzda qor aksumas,
Qo‘yda yog‘ aksumas.

На теневой стороне гор не переводится снег, а у овцы не переводится жир.

Qiz kishi – скупой человек.

Пословица:

Qiz kishi savi yo‘rig‘li bo‘lmas.

Слава о скупом не распространится.

Так говорят, советуя кому-либо проявлять щедрость, чтобы заслужить доброе имя и славу.

Kas, kes – кусок глины. (Hozirgi o‘zbek tilidagi **kesak** so‘zining asli shu bo‘lsa kerak).

Kis – жена. *Aning kisi.* – Его жена.

Bo‘sh. Bo‘sh yilqi – животное, отпущенное на волю.

Ul qul bo‘sh qildi. – Он освободил раба.

So‘q. So‘q yalng‘us er – so‘qqabosh kishi.

Qurch. Qurch temur. – Кованое железо, с ним сравнивают сильных мужчин. *Qurch eran.* – Сильные мужчины.

Sichg‘an yili – год Мыши.

Ud yili – год Быка.

Барс йили – год Барса.

Tavishg‘an yili – год Зайца.

Nek yili – год Крокодила.

Yilan yili – год Змеи.

Yund yili – год Лошади.

Qo‘y yili – год Овцы.

Bichin yili – год Обезьяны.

Taqag‘u yili – год Курицы.

It yili – год Собаки.

To‘ng‘uz yili – год Свиньи.

Turq – длина какого-либо тела. *Yir eni turqi.* – Длина и ширина земельного участка.

Sig‘it – плач. (O‘zb. **yig‘i-sig‘i”**dagi **“sig‘i”**-ning asli).

Tavar – имущество, живое и неживое.

Sig‘ir – рогатый скот.

Suv sig‘iri – бегемот.

Qo‘tuz – дикий буйвол.

Ko‘kuz – грудь.

To‘qush – битва.

Qajish – вражда, гонения среди людей.

Пословица:

Qajish bo‘lsa qiya ko‘rmas. – Когда (между людьми) вражда, они не поворачиваются друг к другу.

Bo‘shug‘ – позволение возвратиться, которое султан дает отправленному к нему посланнику, а также получаемая им награда.

Qasig‘ – полость рта (с правой и левой сторон).

Bidiq (бизиқ) – усы. (O‘zbek tilida **miyiq** shakli saqlanib qolgan).

Bilik (пелиг) – медицинский зонд.

Bitik – книга.

Bitik – письмо.

Bitig – амулет.

Tigin, tikin – слуга. *Alp tigin* (Сильный слуга). O‘zb. Bahodir qul.

Bilga, bilka – мудрый (Bilga xoqon).



Turk nazmida chu men tortib alam,
Ayladim ul mamlakatni yak qalam.

Alisher NAVOIY

SO‘ZLARIM

Bilga, bilka – ученый.
Bilga, bilka – умный.
Baldiz – младшая сестра жены. Сестру мужа называют не **балдиз**, а **singil**.
Qo‘ldash – товарищ, это слово используется среди прислуги знатных людей.
Nijdag‘ – точило.
Buzluq – ледник.
Tuzluq – солонка.
Sag‘liq – дойная овца. (O‘zb. **“sovliq”** so‘zining asli shu ekan. **Sag‘liq** – sog‘ishdan kelib chiqqan).
Bazram – радость и веселье в народе.
So‘lamuq – левша.
Ko‘zundi – быт видным. *Ko‘zundi nang.* Что-либо было видно, в наречии Arg‘u, здесь есть определенная аналогия (с предыдущим словом): это образовано от слова **ko‘z** (глаз). Они вносят различие между формой прошедшего времени и повелительным наклонением, говоря: **ko‘r** (смотри), с. р. В то время как прошедшее время содержит з. (Форма настояще-будущего времени и от глагольное имя): **ko‘zunur, ko‘zunmak.**
Qurdashdi – занимать место рядом с кем-либо. *Ul bek birla qurdashdi.* – Он сел рядом с правителем согласно своему рангу (и.т.п).
To‘lg‘ashdi – сматывать, скручивать. (Janglardagi **to‘lg‘ama** usuli shundan olingan bo‘lsa kerak).
Tersindi – сердиться; нарывать снова после заживления (о ране). *Bek angar tersindi.* – Правитель рассердился на него. *Bash tersindi.* – Зажившая рана или ссадина снова стала нарывать.
Tat – перс, у большинства тюрок.
Пословица:
Tatsiz turk bo‘lmas,
Boshsiz bo‘rk bo‘lmas.
Не может быт перса, не связанного с тюрком, как не может быт головного убора без головы, на которую его надевают.



Qaq – пруд. (Samarqand viloyatining Pastdarg‘om tumanida Qoqcha degan qishloq bor. Ma’nosi shu so‘zdan kelib chiqqan bo‘lsa kerak).
Ko‘k – корень, происхождение. *Ko‘kung kim?* – Какого ты родоплемени? (в наречии огузов и кипчаков).
“Ko‘k tangri”dagi **ko‘k** ham shundanmikan yoki ko‘k so‘zining **osmon** ma’nosidan olinganmikan?
Suqaq – белая антилопа.
Chekik – диакритические точки в письме.
Yangshatti – испытывать (головную) боль. *Ul anig bashin yangshatti.* – Он много говорил, вызвав у него гул (в ушах) и головную боль.
Yash – зелень травы. *Yash o‘t.* – свежее сено.
Yurch – младший брат жены. Брата мужчины и брата женщины называют по-разному. Брата мужчины называют **ini**, если он младше, и **ichi**, если он старше. Сестру мужчины называют **singil**, если она младше, и **aka**, если она старше. Младшую сестру женщины называют **baldiz**, а старшую **aka**.
Yigit – молодой, может относиться ко всему.
Yemish – плод, обобщающее название. В основном оно употребляется для обозначения плодов, растущих на деревьях.
Yag‘mur – дождь. Другой вариант этого слова **yamg‘ur**.
Erantuz – Юпитер.
Qoraqush – Весов. (O‘zb. **Mezon, Tarozi**).
Ulkar – Плеяды.
Yetikan – Большая Медведица.
Temurqoziq – Полярная звезда.
Baqirso‘qim – Марс.
Yerdash– земляк.
Yo‘lsuz – заблудившийся. (O‘zb. **“yo‘lsiz”**).
Yalavach – посланник. (O‘zb. **“Mahmud Yalavoch”**).
Kub – большой кувшин, бочка. (**“Kubok”**, inglizcha “**cup”**, o‘zbekcha **“kuvi”** so‘zlari ham balki shundan kelib chiqqandir?)
Kib (o‘zbekcha nashrda **kip**) – форма (для изготовления) чего-либо. (O‘zbekcha *“kiftini keltirmoq”* iborasidagi **kift** asli **kip** bo‘lishi mumkin. Chunki, arab tilidan o‘zlashgan **kift** so‘zi **yelka**ni anglatadi. “Kiftini keltirmoq”ni “yelkasini keltirmoq” deb tushunish mantiqqa to‘g‘ri kelmaydi. Iborani shartli ravishda “kipini keltirmoq” deb olsak, uni “qolipiga tushdi”, “ayni o‘rnida” kabi ma’nolarda talqin etish mumkin bo‘ladi).
To‘sh – ровня. (O‘zbekcha **teng-to‘sh** so‘zidagi to‘sh shundan ekan-da).
Sav – пословица.
Savda bundog‘ kelir. – Так говорится в пословице.
Sav – история, рассказ; повествование; послание; речь.
Yek – дьявол.
Пословица:
Bilmish yek bilmazuk kishidan iyik. – Дьявол, которого знаешь, лучше, чем человек, которого не знаешь.
Yay – весна. (**Yaylov, yayloq** shundan bo‘lishi mumkin).
Пословица:
Kuz keliki yaydan belguluk. – О наступлении осени известно (еще) весной.
Suvuq – слово, обозначающее любой вид разбавленной жидкости, наподобие кислого молока или разведенного сиропа. **Suvuq** *yug‘urt* – разжиженное кислое молоко.
Kuvuk, kuvuk mush – кот. (Erkak mushuk alohida nom bilan atalgan ekan).
Tadun – годовалый телёнок.
Muyan – воздаяние, вознаграждение. Отсюда привал для питья в дороге называют **muyanliq**.
Muyanchiliq – посредничество, примирение двоих.
Kulika – густая тень.
Kushika – легкая тень.
Sanduvach – соловей.
Jiqdi – впитывать. (O‘zbekcha “jiqqa ho‘l” birikmasidagi jiqqa shundan bo‘lishi mumkin).
Butuq – верблюжонок-самочка. (Hozirgi **bo‘taloq**ning dastlabki shakli bo‘lsa kerak).
Dada – отец, в огузском.
Qora qush – орёл.
Qora qush – Юпитер.
Qora o‘run – могила.
Qora yag‘ – нефть.
Qorabosh – слово, которым называют рабов, и мужчин, и женщин. Эта значит “черная голова”.
Bo‘ka – большая змея. (“Boburnoma”da – **“botir”, “polvon”** ma’nosida).
Balu-balu – частица, которую произносит мать, усыпляя ребенка в колыбели. (Eshqobil Shukur “Boboso‘z izidan” kitobida uning rus tiliga **“bayu-bayu”** shaklida o‘zlashganini aytadi).
Tang – удивительный.
Tang – утро.
Meng – родинка на лице.
Mengiz – цвет (лица) человека. (O‘zbekcha **qoramag‘iz** – qorachadan kelgan insonga nisbatan ishlatiladi).
Munguz – рога. (O‘zb. **“muguz”**).
Yabang, yabang yir – трясина.



Elmurod NISHONOV,
tadqiqotchi

Yeling – место, где часто дуют ветры, называют **yeling**.
Yukunch – молитва, в наречии кипчак.
Qarincha – муравей, в огузском.
Mingar – источник воды, в огузском. (Hozirgi turk tilida buloq, **chashma pınar** “пынор” (**ы** bilan, pinar emas) deyiladi).
Qangli – повозка для перевозки грузы.
Yangqu – эхо.
Qangdash, qangdash qadash – дети от разных жен.
Dangal – узел, сочленение.
Yalnguq – имя, которым называют Адама, да благословит его Аллах!
Пословица:
Yalnguq o‘g‘li yo‘qazur, ezgu ati qalir. – Сын Адама умирает, но добрая (память о нем и) имя его остаются (если он был хорошим).
Tangrikan – мудрый, благочестивый человек.
Yangalduruq – кусочек войлока, который пришивают к краю войлочной шапки для защиты головы от дождя и осадков.
Yanan – слон. Огузы не знают этого слова.
Qilduruq – ости колосьев пшеницы (или др.).
To‘rtkil, to‘rtkil av – четырехугольный дом или другой предмет четырехугольной формы.
O‘tunch – заем.
Urunch – взятка, подкуп.
Umunch – надежда.
Inanch – надежный.

AJDOD VA AVLODLARNI BIRLASHTIRADIGAN KITOB

“Turkiy so‘zlar devoni”da xalqlarimizning bag‘rikengligi, tinchlikparvarligi, do‘stlik, birodarlik, sadoqat tuyg‘ularini benihoya qadrlashi, mehmondo‘stlik xususiyatlari aks etgan bir qancha she’r, qo‘shiq va maqollar keltirilgan.

Qo‘ldosh bila yarashg‘il,
Qarship adin o‘durma, –

ya’ni, “Qo‘ldoshing – do‘stingni hurmatla, qadriga yet, u bilan yaxshi muomala qil, o‘z qardoshing qolib, begonalar bilan bo‘lib ketmagil”, deyiladi ana shunday she’rlarning birida.

Yana bir sav (hikmatnoma)da esa:

Kulsa kishi yuzunga,
Ko‘rklug yuzin ko‘rungil,
Yavlaq ko‘daz tilingni,
Ezgu savig‘ tilangil, –

deyiladi. Ya’ni, “birov senga kulib qarasa, sen ham unga ochiq chehra bilan boq. Shirin so‘zli bo‘l, yomon gaplardan tilingni tiy”.


Bugun 300 milliondan ziyod nufus bilan dunyoning eng yirik xalqlaridan biri sifatida e’tirof etilayotgan turkiylarning bir tashkilot bayrog‘i ostida birlashayotgani, ota-bobolarimizning o‘lmas o‘gitlari asosida turkiy davlatlar o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-gumanitar, madaniy-ma’rifiy hamkorlik aloqalarining tobora rivojlanib, xalqlarimizning qardoshlik, do‘st-birodarlik munosabatlari mustahkamlanib borayotgani barchamizning ko‘nglimizga g‘urur-iftixor, shukronalik tuyg‘ularini bag‘ishlaydi.

Bugungi tahlikali zamonda, turli siyosiy kuchlar, bloklar, mamlakatlar o‘rtasida shiddatli raqobat kechayotgan bir sharoitda **turkiy birlik** tushunchasining ahamiyati naqadar yuksak ekanini yurak-yuragimizdan his etamiz.

Ildizi bir, o‘tmishi mushtarak, qo‘ldosh va qardosh, taqdirdosh xalqlarimizning umumiy madaniy va ma’rifiy mulki hisoblanmish “Devonu lug‘otit turk” asarining zahmatkash olimlarimiz – Zifa-Alua Avezova hamda u kishining umr yo‘ldoshi, niderlandiyalik Robert Ermers tomonidan nashrga tayyorlanib, Turkiy madaniyat va meros fondi homiyligida chop etilgani turkiy dunyo ma’naviy hayotida chinakam ulkan hodisadir.

Fursatdan foydalanib, ushbu xayrli va ulug‘ ishga bosh qo‘shgan barcha fidoyi insonlarga kitobxonlar nomidan cheksiz tashakkur va minnatdorlik bildiramiz.

TALQIN



OLIMNING ILMI VA AMALI

O‘zbek adabiyotida, xususan, she’riy tafakkurning yangilanishida iste’dodli shoir Rauf Parfining alohida o‘rni bor. Shoir bir necha avlod tadqiqotchilari uchun manba bo‘la oladigan adabiy meros qoldirgani sir emas. Bu yo‘lda tadqiqotchilar safi sekinasta ortib borishi tabiiy. Ularning old safida Olim Oltinbek turibdi. Yaqinda “Muharrir” nashriyotida uning “Rauf Parfi shaxsiyati va she’riyati poetikasi” nomli yangi kitobi nashrdan chiqdi.

Bu jiddiy monografiya muallifning bir necha o‘n yillik umrining mazmuni, o‘ylovlari, izlanishlari natijasidir. Olim Oltinbek Rauf Parfi hayoti va ijodini, shoirning daftarlarda qolib ketgan mashqlari, she’rlari nusxalari, arxivini yaxshi biladi. Rauf Parfi haqida yozilgan maqolalar, turli xotiralar, suhbatlar – bularning o‘zi bir dunyo. Rauf Parfining matbuotda bosilgan adabiy maqolalari, bosilmagan hikoyalari ham Olimning izlanishlari tufayli muxlislar qo‘liga yetib bormoqda. Bundan keyin Rauf Parfi adabiy ijodiyoti bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan har kim ushbu kitobga murojaat etishi, uni o‘qishi shart.

Kitob muallifni Rauf Parfi adabiy-ijodiy merosining chin bilimdoni sifatida ilm ahliga yana bir bor tanitadi. Kitob uning qalb prizmasidan o‘tkazilib, mehr-muhabbat va ixlos bilan yozilgan, shuningdek, shoir poetik dunyosini tub-tubidan anglab muhokama qilingani va shoir adabiy ijodining ko‘p qirralari yoritib berilgani bilan qadrli. Olim Oltinbekning ilmi va amali ismiga mos. Biror adabiy mavzu, masala ustida ishlash jarayoni ham o‘ziga xos. Kayfiyatini shu tomonga burish, bir necha kun rejalashtirib yurish va yana ijod laboratoriyasining biz bilmaydigan sirli nuqtalari bor.

Hay, bir achchiq gap. Bugungi adabiy-ilmiy hayotda ba’zi toifalarning bir yumalab ulkan “alloma”ga do‘nishi yashin tezligida tarqalgan kasallikdir. Birovlardan ko‘chirib, usluban o‘zgartirib, kitoblar yasab va aynan kimdan ko‘chirgan bo‘lsa, shu muallifning o‘ziga gajakdor imzolar bilan taqdim etayotgan kimsalar ko‘zimiz o‘ngida kattarmoqda. Uyat ham, andisha ham, etika ham, eng qizig‘i, arzigulik bilim ham yo‘q, ammo iddaolar unvon va darajaga mos. Holbuki, biror farmoyish bilan tasdiqlab qo‘yilmagan bo‘lsa-da, ilmda, tadqiqotda, iqtibos olishda ham madaniyat, odob-axloq qonuniyatlari bor. Shunday bir muhitda, yoshidan qat’i nazar, juda ko‘p tadqiqotchi kimsalar Olim Oltinbek asarlariga, mana shu tiniq ko‘zguga qarab etaklarini yopib olishsa, nur ustiga nur bo‘lar edi, deb o‘ylab yuraman.

Olim – kengfe’l inson. Qo‘lida bor manbani kimdir so‘rasa beradi va bu manbani olganlar ulardan kitob chiqarib, aynan o‘ziga sovg‘a qilganini bilaman. U bir kuni gap ochib qoldi. Rauf Parfining muxlisi, shu yo‘lda ilmiy ishga rag‘bati bor bir kishi bilan uchrashib qolibdi. Uni uyiga taklif qilib, bir kecha tongotar gurung qilibdi. Hali aytganimdek, qo‘lidagi tayyor manbalarni beribdi. Oradan ikki-uch oy o‘tib, haligi kimsa, shu manbalarni kitob qilsam, deb Olimga qo‘ng‘iroq qilarmish. Qani insof, qani vijdon, qani adab? Yana bir gal qo‘lidagi bir tarjimani tayyor kitob holida birovga jo‘natadi. U esa Olim yuborgan kitobni o‘z nomidan nashriyotga taqdim etadi va gonorar ham oladi. Bular bir-ikki misol, xolos. Olim Oltinbek maqolami, risola yoki tadqiqot yozadimi – biror adabiyotshunosdan bir jumla olsa, albatta, havolada ko‘rsatadi. Ko‘lami qanday bo‘lishidan qat’i nazar, muammoni hech erinmay, zarrama zarra sinchiklab o‘rganadi. Rauf Parfi haqidagi kitobini yozishda ham shoirni bilgan va taniganlarni izlab topib, manbalarni aniqlashtirish uchun yelib-yugurdi. Ularga tashakkur aytishni esidan chiqargani yo‘q. Bularning barchasi, nazarimda, boshqalar uchun ibrat, ziyoli degan rutbaning ko‘zgusi, albatta.

Olimning yangi kitobida Rauf Parfining ijodkor shaxs sifatida shakllanish jarayoni, ijodining evolyutsion bosqichlari, mavzulari ko‘lami, milliy o‘ziga xosligi, boshqa millatlarga hamdardligi, jahon adabiyotidan o‘rganish omillari, she’riy merosida uchraydigan barcha janrlar, shoir she’riyatidagi yangi, individual shakllar, lirik merosiga xos eng muhim poetik san’atlari kabi qator masalalar ilmiy-nazariy jihatdan asoslanib, nuktadonlik bilan ochib beriladi.

Jadidlarning ma’naviyat bulog‘idan suv ichgan Rauf Parfidek haqqoniyat ramzi bo‘lgan adiblar kitoblaridan saboq olgan Olim Oltinbek kabi ziyolilarni millatning ma’naviy xazinasi, desak, adashmagan bo‘lamiz.

Bahodir KARIM,
filologiya fanlari doktori,
professor



Ko‘rdimki, eng yaxshi do‘st ilm ekan.
Najmiddin KUBRO

NAJOT – TA’LIMDA

DARSLIK SHUNDAY BO‘LSA!



“Bolalarga nimani o‘rgatish kerak?” degan savoldan avval “Bizga qanday avlod kerak?” degan savolni qo‘ygan jadidlar maktabdagi o‘zgarishlarga katta umid bog‘lagan edilar. Bugun esa... Internet, sun’iy intellekt, ijtimoiy tarmoqlar va turli raqamli manbalar orasida ulg‘ayayotgan bolaning qo‘lida darslik bilan birga smartfon, video, elektron kitoblar, turli dasturlar va interaktiv imkoniyatlar bor. U istalgan ma’lumotni bir necha soniyada topa oladi. Demak, kechagi maktabning eng qimmat boyligi bo‘lgan ma’lumot bugun oson va tez topiladigan resursga aylandi. Bu o‘zgarish ta’limning vazifasiga yangicha qarashni talab qiladi.

Yangi avlod darsliklarida o‘quvchini savol berishga, mustaqil fikrlashga, kuzatishga, izlanish va bilimni hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lashga undaydigan yondashuvlar tobora kengroq aks etayotganini ko‘ramiz. Endi masala bu tamoyillarni qay darajada chuqurlashtirish va boshlang‘ich sinf darsliklarini yaratishning izchil mezoniga aylantirishdadir. Albatta, keyingi yillarda mamlakatimizda darsliklar mazmuni va sifatiga katta e’tibor qaratilmoqda. Zamonaviy o‘quv adabiyotlarini yaratish, ularni ilg‘or yondashuvlar asosida takomillashtirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayon doimiy izlanish va yangilanishni talab qiladi. Chunki ta’lim bir joyda to‘xtab qolmaydi. Shu bilan birga, darslikni yangilashni faqat unga yangi ma’lumotlar, yangi dizayn yoki raqamli texnologiyalarni qo‘shish bilan o‘lchash ham yetarli emas. Chunki boshlang‘ich sinf darsligining haqiqiy qiymati faqat unda nima borligi bilan emas, o‘sha mazmun bolada qanday bilish jarayonini uyg‘otayotgani bilan ham belgilanadi.

Bolaning bilimga munosabati uning atrofidagi dunyoni qanday kashf etayotgani bilan chambarchas bog‘liq. U nimagadir qiziqadi, savol beradi, kuzatadi, sinab ko‘radi – o‘rganish ham aynan shu jarayondan boshlanadi. Boshlang‘ich maktab yoshidagi bolaning bilish jarayonida tasavvur, obraz va hissiy tajriba alohida o‘rin tutadi. Bir xil ma’lumot katta odam va bola tasavvurida mutlaqo boshqacha manzara hosil qiladi. Bola dunyoni kattalardek quruq tushunchalar orqali emas, avvalo, obrazlar orqali qabul qiladi. Kichkina bola uchun dunyo hali formulalarga sig‘maydi. Uning olamida har bir narsaning rangi, ovozi, shakli va hikoyasi bor. Shuning uchun har bir bola tabiatan kichik shoir, kichik rassom, kichik hikoyachidir.

Obrazli tafakkur haqida gap ketganda, bolaning narsani faqat belgisi va tashqi shakli orqali emas, uning zamiridagi ma’no va obraz orqali anglash qobiliyatini ham nazarda tutish lozim. Shayx Sa’diyning “Guliston” asarida shunday hikoyat bor: podsho o‘z o‘g‘lining bilimini sinash uchun qo‘liga bir uzukni yashirib, undan qo‘lida nima borligini so‘raydi. Shahzoda uzukning belgilarini, shaklini to‘g‘ri topadi, otasi bundan xursand bo‘ladi. Ammo “Nima ekanini aytmading?” degan savolga u “tegirmon toshi” deb javob beradi. Ya’ni, bola belgilarni to‘g‘ri idrok etgan, ammo ularni yaxlit ma’noga aylantirishda o‘z tasavvuriga suyangan. Bu oddiy hikoya emas. U bola tafakkurining muhim bir xususiyatini ko‘rsatadi: bola dunyoni tayyor ma’nolar yig‘indisi sifatida emas, o‘z tasavvuri va ichki tajribasi orqali anglaydi.

Bugun bolaning qo‘lida belgi ham, ma’lumot ham, bilim ham bor. U kerakli ma’lumotni oson topadi, uni ajratadi, taqqoslaydi va mantiqiy xulosa chiqaradi. Ammo inson tafakkuri ma’lumotni topish va belgilarni tanish bilan kifoyalanmaydi. Bilim inson ongida ma’noga aylangandagina, uning haqiqiy qiymati namoyon bo‘ladi. Bu yerda aql va qalbning o‘zaro munosabati muhim. Aql bilish, tahlil qilish, taqqoslash va mantiqiy xulosa chiqarish jarayonini tartibga soladi. Ammo inson dunyoni faqat mantiq orqali anglamaydi. Tasavvur narsaning boshqacha qiyofasini ko‘rsatadi, his uning inson uchun ahamiyatini ochadi, ma’no esa bilimni shaxsiy tajribaga aylantiradi. Shu ma’noda, aql bilimni anglaydi va tartibga soladi, tasavvur va his esa uni insonning ichki dunyosi bilan bog‘laydi. Qalb ana shu bilim, tasavvur va his birlashib, inson uchun ma’no kasb etgan joyda aks etadi.

Balki endi ta’limda bolaning aqlini rivojlantirish bilan bir qatorda, uning qalbiga ham yo‘l topish vaqti kelgandir. Zero, boshlang‘ich ta’limda bolaga faqat to‘g‘ri javobni topish emas, o‘sha javobning inson hayotidagi ma’nosini tushunish, boshqa nuqtayi nazarni tasavvur qilish, hayratlanish, his qilish va mustaqil savol qo‘ya olish qobiliyati ham kerak. Haqiqiy bilim, ehtimol, ma’lumot insonning xotirasida emas, uning qalbi va tasavvurida ma’noga aylangan paytda boshlanar? Bu qobiliyatni bolaning oddiy buyumlarga munosabatida ham ko‘rish mumkin. Bir bo‘lak kartonni olaylik. Katta odam uchun u oddiy quti. Bola esa undan mashina yasaydi. U mashinani “haydaydi”, unga nom qo‘yadi, qayerga borayotganini ko‘z oldiga keltiradi. Biz uchun u shunchaki karton, bola uchun esa butun bir dunyo. Demak, bola narsaning faqat tashqi belgisini ko‘rib qolmaydi, unga o‘z tasavvuri orqali yangi ma’no beradi. Aynan shu xususiyat boshlang‘ich sinf darsligi uchun ham muhim. Agar darslik bolaning ana shu tabiiy qobiliyatini ishga solmasa, u bolaning eng kuchli bilish resurslaridan biridan to‘liq foydalanmayotgan bo‘ladi. Shu nuqtada darslikka boshqacha qarash ehtiyoji paydo bo‘ladi: u faqat tayyor bilimni yetkazib beruvchi vosita emas, boshlang‘ich sinf o‘quvchisining tasavvurini harakatga keltiradigan maydon vazifasini o‘taydi.

Darslik bolaga tayyor dunyoni ko‘rsatibgina qolmasin, uning tasavvurida yangi dunyo paydo bo‘lishiga turtki bersin. Bola kitobni o‘qiganda faqat ma’lumot olmasin, ko‘z oldida manzara paydo bo‘lsin, biror qahramon bilan do‘stlashsin, voqeani o‘zicha davom ettirsin, savol bersin, rasm chizsin, kuzatsin, hatto kitobda aytilmagan javobni o‘zi izlab ko‘rsin. Bu yerda gap yangi darsliklarda bunday topshiriqlar umuman yo‘qligi haqida emas. Aksincha, bugungi darsliklarda ochiq savollar, mustaqil izlanish, hayotiy vaziyatlar va ijodiy vazifalarga tobora kattaroq o‘rin berilmoqda. Masala – ana shu yondashuvni alohida-alohida topshiriqlar darajasidan chiqarib, boshlang‘ich sinf darsligining butun ichki mantig‘iga singdirishda.

Insoniyatning buyuk ma’naviy merosiga qarasak, obraz va ramzning o‘rni qanchalik katta ekanini ko‘ramiz. Muqaddas kitoblar, dostonlar, afsonalar, ertaklar asrlar davomida inson qalbiga quruq qoida sifatida emas, hikoya, timsol va obrazlar orqali kirib kelgan. Chunki inson ba’zan birgina obrazni mingta ta’rifdan ko‘ra chuqurroq his qiladi. Shu ma’noda, boshlang‘ich sinf bolasiga darslik yozish – unga faqat bilim berish bilan cheklanmaydi. Bu uning tasavvurida bilim yashaydigan dunyoni shakllantirishdir.

Turli mamlakatlarning ta’lim tajribasiga murojaat qilsak, darslik va o‘quv materiallariga yondashuvlar ham xilma-xil ekaniga duch kelamiz. Qaysidir davlatda mustaqil fikrlashga, qaysidir davlatda tushunish va masala yechishga, yana qaysi birida raqamli resurslardan samarali foydalanishga katta e’tibor beriladi. Xorij tajribasi biz uchun tayyor qolip emas, balki o‘z ta’limimiz, o‘z bolalarimiz va o‘z milliy tajribamizga mos yo‘lni izlashda foydali manba bo‘la oladi. Shu yo‘l boshlang‘ich sinf darsligini hayotga yanada yaqinlashtiradi. O‘quvchi o‘rganayotgan tushunchasining atrofidagi voqelik bilan bog‘liqligini ko‘rsa, bilim uning uchun yanada mazmunli tus oladi. Tabiat, shahar va qishloq hayoti, atrof-muhit, kasblar, kundalik kuzatishlar yoki oiladagi oddiy voqealar darsdagi mavzuni bolaga yanada tushunarli va ta’sirchan qiladi. Boshlang‘ich sinfda matematikada oilaviy xaridlar, meva va o‘yinchoqlar bilan bog‘liq masalalar, o‘qish va ona tili darslarida bolaning kundalik hayotiga yaqin matnlar, tabiiy fanlarda esa o‘zi ko‘rib turgan o‘simlik, hayvon, suv, havo va ob-havo bilan bog‘liq kuzatishlar kitobdagi bilimni hayotdagi voqelik bilan tutashtirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuvda bola o‘rganayotgan bilimini faqat dars uchun emas, atrofidagi olamni idrok etish vositasi sifatida qabul qila boshlaydi.

Darslikning yana bir vazifasi – bolaning dunyodagi o‘z o‘rnini anglashiga yo‘l ochish. Global axborot makonida ulg‘ayayotgan avlod uchun boshqa xalqlar tarixi, madaniyati va tajribasini bilish qanchalik muhim bo‘lsa, o‘z yurtining tarixi, tili, tabiati va madaniy xotirasini chuqur anglash ham shunchalik zarur. Zero, zamonaviy ta’limning maqsadi – bolani dunyo bilan erkin muloqot qiladigan, yangi tajribalardan bahramand bo‘lgan holda o‘zligi va qadriyatlarini asraydigan inson qilib tarbiyalashdir.

Bugun QR-kodlar va elektron resurslar ham darslikning bir qismiga aylanib bormoqda. Ular bolaga kitobdagi mavzuni qo‘shimcha manbalar orqali chuqurroq o‘rganishga yo‘l ochadi. Ammo raqamli resursning o‘zi yangilik emas. Muhimi, undan qanday foydalanishda. Raqamli resurs qog‘ozdagi matnni takrorlamasin, uni boyitsin. Boshlang‘ich sinf darsligida QR-kod orqali bola qisqa tajriba, ovozli matn, animatsiya, interaktiv xarita, rasmli topshiriq yoki kuzatuv vazifasi bilan tanishadi. Masalan, tabiiy fanlar darsida o‘simlikning o‘sish jarayonini ko‘rsatuvchi qisqa video, ona tili yoki o‘qish darsida matnning ifodali o‘qilishi, matematikada esa shakllar yoki o‘lchovlarga oid interaktiv topshiriq taqdim etiladi. Agar QR-kod kitobdagi matnning elektron nusxasiga emas, tajriba, ovoz, interaktiv xarita, 3D obyekt yoki boshqa qo‘shimcha imkoniyatga olib borsa, kitobning imkoniyati kengayadi.

Har bir o‘qituvchining yillar davomida to‘plagan o‘z usuli bor. Kimdir matematikadan ajoyib masala o‘ylab topgan, kimdir tarixni qiziqarli tushuntirish yo‘lini biladi, yana kimdir murakkab mavzuni oddiy tajriba orqali tushuntiradi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida bolaning qiziqishi va tafakkurini harakatga keltiradigan ko‘plab amaliy usullar shakllangan. Bu tajribalarni umumlashtirib, o‘quv materiallarini takomillashtirish jarayoniga olib kirish darslik mazmunini hayot bilan yanada mustahkam bog‘laydi.

Bugun bir o‘qituvchining yaxshi g‘oyasi ertaga minglab o‘quvchilarga yetib boradi. Shu ma’noda, darslik yaratish jarayoni faqat mualliflar va ekspertlar doirasida qolmay, boshlang‘ich sinflarda ishlayotgan o‘qituvchilar tajribasi bilan ham muntazam boyib borishi ahamiyatli. Yaxshi topshiriq avval sinfda sinab ko‘riladi, o‘quvchining reaksiyasi kuzatiladi, natijasi tahlil qilinadi va keyin takomillashtiriladi. Shunda darslik tayyor bo‘lib, hayotdan uzilib qolmaydi, aksincha, hayotdagi o‘zgarishlar va pedagogik tajriba bilan muntazam yangilanib boradi. Eng muhimi, boshlang‘ich sinf darsligining qiymati undagi ma’lumot miqdori bilan emas, bolada uyg‘otgan fikr, savol va yangi tasavvur bilan ham o‘lchanadi.



Habib ABDIYEV,
Maktabgacha ta’lim malaka oshirish instituti prorektori

Bola dunyoni so‘z va tushunchalardan tashqari, uni o‘rab turgan narsalarni kuzatish, his qilish va ular bilan munosabatga kirishish orqali ham anglaydi. Bir tomchi suvda yomg‘irni, oynada boshqa bir olamni, devordagi soyada esa harakatlanayotgan qahramonni ko‘radi. Kattalar uchun bir-biridan uzoq bo‘lgan narsalar bolaning tasavvurida osongina bir dunyoga tutashadi. Matn, rasm, misol va voqea uning xayolida bir-biri bilan bog‘lanib, yangi ma’no kasb etadi. Shu ma’noda, haqiqiy yangi avlod darsligi bola dunyoni tayyor holda qabul qiladigan emas, uni savollar, tasavvur va izlanish orqali kashf etadigan muhitga aylanishi bilan qadrli. Bugungi darsliklarda mustaqil fikrlash, hayotiy misollar, ijodiy topshiriqlar, milliy mazmun va raqamli imkoniyatlarga yo‘l ochilgani – bu jarayonning boshlanganini ko‘rsatadi. Endigi vazifa shu yondashuvlarni yanada chuqurlashtirish va ularni darslik yaratishning izchil tamoyiliga aylantirishdan iborat. Shunda darslik bolaga nafaqat dunyoni ko‘rsatadi, balki dunyoni boshqacha ko‘rishni ham o‘rgatadi.

Bola kitobni yopganda xotirasida ma’lumotlar qolishi yaxshi, ammo shu ma’lumotlar unda qiziqish, o‘z fikrini va yanada bilish istagini uyg‘otsa, boshlang‘ich sinf darsligi o‘z vazifasini bekam-ko‘st bajargan bo‘ladi. Zero, ta’limning maqsadi barcha bolaga bir xil javobni yodlatish emas, ularda o‘z fikrini shakllantirish va tug‘ilgan savollarga mustaqil javob izlash qobiliyatini rivojlantirishdir.

Bizga ma’lumotni yodlaydigan emas, uni tushunadigan; tayyor javobni qabul qiladigan emas, savol beradigan; dunyoni ko‘radigan emas, uni kashf etadigan; aqli bilan fikrlaydigan va qalbi bilan his qiladigan avlod kerak.

Yaxshi darslik o‘qishni kitobning so‘nggi sahifasida tugatmaydi – aksincha, o‘quvchining xayolida yana davom etadi. Balki, boshlang‘ich sinf uchun kelajak darsligi tayyor dunyoni ko‘rsatishdan ko‘ra, bolaning o‘zi kashf etadigan dunyoga yo‘l ko‘rsatadigan kitobdir.

JAHON AYVONIDA

TARIXIY KUMUSH MEDAL

Afg‘onistonlik 23 yoshli velosportchi Fariba Hoshimiy Osiyo o‘yinlarining ayollar o‘rtasidagi shosse poygasida kumush medalni qo‘lga kiritdi.



OAV xabarlariga ko‘ra, sportchi ushbu natijaga erishish va muntazam mashq qila olish maqsadida yillar davomida erkaklar kiyimida yurishga majbur bo‘lgan.

ERON TASLIM BO‘LMAYDI

Eron prezidenti Mas’ud Pezeshkiyon BMT Bosh Assambleyasidagi nutqida Islom Respublikasi AQSH bosimiga aslo taslim bo‘lmasligini ma’lum qildi.

“Al Arabiya” xabariga ko‘ra, davlat rahbari Tehron tomonidan Hormuz bo‘g‘ozida joriy etilgan cheklovlarni ham to‘liq yoqlab chiqqan.



“SUPER INTELLEKT”

AQSH prezidenti Donald Tramp BMT Bosh Assambleyasidagi nutqida bundan buyon mamlakatda sun’iy intellekt “super intellekt” deb atalishini ma’lum qildi.




Shuningdek, u dunyoning boshqa davlatlarini ham mazkur yangi ta’rifga ergashishga chaqirdi.

RUS TILINI SIYOSIYLASHTIRMASLIK

Qozog‘iston prezidenti Qosim-Jo‘mart To‘qayev rus tili masalasini siyosiylashtirmaslikka chaqirdi.


Bu haqda u Oqo‘rdada Rus tili bo‘yicha xalqaro tashkilot bosh kotibi Natalya Bocharova bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuv chog‘ida ma’lum qildi.



Davlat rahbarining ta’kidlashicha, mazkur tashkilotning gumanitar aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan zamonaviy, obro‘li va samarali tuzilma sifatida shakllanishi prinsipial ahamiyat kasb etadi.

DAVLAT PORTALIGA HUJUM

Avstraliya hukumati payshanba kuni “OpenAI” agenti joriy yilning iyun oyida sog‘liqni saqlash bo‘yicha davlat ma’lumotlar portaliga buzib kirib, maxfiy fayllardan ruxsatsiz foydalanish imkoniyatini qo‘lga kiritganini ma’lum qildi.



Qayd etilishicha, mazkur holat sun’iy intellekt tomonidan davlat veb-saytiga uyushtirilgan ilk kiberhujum bo‘lishi mumkin.

ENG ANIQ ATOM SOATI



Olimlar dunyodagi eng aniq atom soatini yaratishga muvaffaq bo‘ldi – qurilmadagi xatolik ehtimoli 260 milliard yilda bor-yo‘g‘i bir soniyani tashkil etadi.

QADIMIY TINCHLIK SHARTNOMASI

Turkiyaning qadimgi Hattusa shahrida topilgan akkad tilidagi mixxat lavha tarixiy Kadesh tinchlik shartnomasining yangi qismi ekani aniqlandi.



Mazkur hujjat miloddan avvalgi XIII asrda Misr fir’avni Ramzes II hamda Xett podshohi Xattusili III o‘rtasida tuzilgan dunyodagi eng qadimiy bitimlardan biri hisoblanadi.

QORAQALPOG‘ISTONDA JADID HARAKATI

Boshlanishi 1-sahifada.

1898-yilda Xivada birinchi jadid maktabi tashkil qilingach, Yangi Urganch, Xonqa, Hazorasp, Gurlan, Toshhovuz, Shovot hududlari qatorida, Orol dengiziga yaqin hududlarda ham jadid maktablari tashkil etiladi. Aynan Qo‘ng‘irot, Xo‘jayli, Chimboy, Shumanay, umuman, hozirgi Qoraqalpog‘iston hududlarida jadid maktablari va jadidlar harakatining shakllanishi va rivojida Yusuf afandi Ahmad o‘g‘li, Seyfulg‘abid Majidov, Muhammadsharif So‘fizoda, Hamza Hakimzoda singari pedagoglarning o‘rni katta bo‘ldi.

Xususan, Yusuf afandi Ahmad o‘g‘li Xorazmdagi jadid maktabida faoliyat olib borgan ilg‘or pedagoglardan biri edi. U 1907-yilda Xiva xoni Feruzxon tomonidan Qozon shahridan Husayn afandi bilan birga taklif qilingan va Xivadagi jadid maktabida o‘qituvchilik qilgan. Yusuf afandi ishlagan maktab tezda o‘quvchilar va ota-onalar e’tiborini tortib, ta’lim sifati bo‘yicha Xorazmdagi rus-tuzem, jadid va an’anaviy maktablar o‘rtasidagi raqobatda oldingi darajaga chiqqan. Yusuf afandi pedagogik tajribasini boshqa hududlarda ommalashtirish maqsadida 1909-yili Xo‘jayli shahriga keladi. Yusuf afandini Xo‘jayliga taklif qilgan hokim Avazbiyxo‘ja o‘z davrining taraqqiyparvar shaxslaridan bo‘lib, hudud farzandlarining istiqbolini o‘ylab, Qizilko‘prik yonidagi o‘z hovlisini jadid maktabi uchun ajratadi. Yusuf afandiga ham yashashi, ishlashi uchun sharoit yaratib beradi. Ushbu maktab shu tarzda 7 yil faoliyat ko‘rsatib, siyosiy bosim ostida yopilishga mahkum bo‘ladi. Yusuf afandi va hamkasblari pedagogik faoliyatini boshqa hududda davom ettiradi.

Quyi Amudaryo bo‘ylaridagi ikkinchi jadid maktabi Qo‘ng‘irot shahrida 1910-yilda Muhammadsharif So‘fizoda tomonidan tashkil qilinadi. Asli namanganlik So‘fizodaning pedagogik faoliyati shu tarzda Qo‘ng‘irot bilan bog‘liq kechdi. “Tarjimon” gazetasi ma’lumotiga ko‘ra, 1907-yilda Xivada jadid maktablarini ko‘paytirish, ularni o‘quv jihozlari va adabiyotlari bilan ta’minlash, ta’lim sifatini nazorat qilish uchun Ramazon Muhammad Karimzoda maktablar noziri qilib tayinlanadi. Natijada talab va taklif ortgani bois, Xo‘jayli, Qo‘ng‘irot, Chimboy, Mang‘it, Gurlan, Xonqa shaharlarida ham jadid maktablari tashkil etiladi va bu faoliyatning keng ommalashishida Ramazon Karimzodaning xizmati beqiyos bo‘ladi.

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Sayyora Samandar So‘fizodaning Xorazmdagi pedagoglik faoliyati bo‘yicha tadqiqot olib borgan. Uning tahlillariga ko‘ra, aynan So‘fizodaning Xorazmga kelib pedagoglik faoliyatini boshlashida Ramazon Karimzodaning o‘rni katta bo‘lgan. Karimzoda So‘fizodaga Orol dengizi va Amudaryoga yaqin, iqlimi vodiynikiga mos Qo‘ng‘irotdagi maktabda ishlashni taklif qiladi. Shu tariqa, So‘fizodaning uch yillik pedagoglik faoliyati Qo‘ng‘irot shahrida davom etadi. U bu yerdagi jadid maktabida muallimlik qilish bilan birga, ma’rifatparvarlik ruhida she’rlar yozib, Boku va Orenburgda chiqadigan gazeta-jurnallarda nashr ettiradi.

R. Qosbergenovning “Қарақалпақ халқының колониал даўирдеги мәденияты хам турмысы” nomli kitobida yozilishicha, “1910–1913-yillarda Qo‘ng‘irotda taniqli o‘zbek ma’rifatparvari Muhammadsharif So‘fizoda tomonidan tashkil qilingan jadid maktabida shogirdlarga ona tili, geografiya, handasa (geometriya) kabi fanlar o‘rgatilgan”.



Userbay Aleuov va Qalbay Seytmuratovning “Qoraqalpog‘istonda jadid harakati va Seyfulg‘abid Majidov” nomli asarida quyidagilarni o‘qiymiz: “Qoraqalpog‘istonlik K.Ermanov, R.Majidov kabi mashhur shoir-yozuvchilarlarning ham ushbu yangi usul maktabida ta’lim olgani ma’lum. So‘fizoda Qoraqalpog‘istonda pedagogik faoliyat olib borgan davrida qoraqalpoq ma’rifatparvarlari S.Majidov va A.Musayev bilan yaqin aloqada bo‘lib, ulardagi jadidlik harakatining yanada rivojlanishiga ta’sir o‘tkazdi. Natijada Seyfulg‘abid Majidov Qo‘ng‘irotda 1912-yilda jadid maktabini tashkil qilib, o‘zi shu maktabda o‘qituvchilik qilgan. U ayni paytda yaratgan asarlarida jadid g‘oyalari, milliy ozodlik haqidagi fikrlarini targ‘ib qilishga erishdi”. Yana shu kitobdagi ma’lumotlarda aytilishicha, “1911-yilda Qo‘ng‘irotda Q.Amirov tomonidan keyinchalik obro‘li ta’lim markaziga aylangan yangi usuldagi maktab tashkil etilib, bunga Qozon shahridan tajribali pedagog Ahmad Zokir Botirov o‘qituvchilikka chaqirilgan”.

Seyfulg‘abid Majidov faqat jadid shoiri, pedagogi sifatida emas, 1921-yili Qo‘ng‘irot okrugi xalq ta’limi bo‘lim boshlig‘i, 1925-yildan Xo‘jayli okrugi inspektori, so‘ngra Toshkent, To‘rtko‘l, Urganch, Nukus shaharlaridagi tashkilotlarda faoliyat yuritdi. 1937-yilda “xalq dushmani” sifatida qamalib, 1938-yilda qatag‘on qurboni bo‘ldi.

Yoshlarning yangi ta’lim dargohlariga bo‘lgan qiziqishi sababli, 1912-yili Chimboy shahrida ham jadid maktabi tashkil qilinadi. Bu maktabning tashkilotchilari Qozi Maulik nomi bilan tanilgan shaxs va boshqird pedagogi Abbos Amantayev edi. Tarixchi A.Kudiyarov ma’lumotlariga ko‘ra, “Jadid shoiri Qozi Maulik (1885–1950) Buxoro madrasasida tahsil olib yurgan paytida “Yosh buxoroliklar” harakatiga a’zo bo‘lib, jadid maktabidagi ta’lim jarayoni, jadid harakatining milliy istiqlol uchun intilish rejalari bilan tanishib, diniy bilimlarini chuqurlashtirish bilan birgalikda, ijtimoiy-siyosiy qarashlarini ham kengaytirib boradi. Qozi Maulik madrasani 1912-yilda tugatib, Qoraqalpog‘istonga kelib jadidlik harakatini davom ettiradi. Chimboyda tashkil qilingan yangi maktab bolalarini bepul ovqatlantirib, ularga ta’lim bera boshlaydi”.

Qozi Maulik Chimboyda kitob do‘koni ham ochib, unga turli bosmaxonalarda chop etilgan kitoblarni keltiradi, o‘zi ham kotiblar jamoasini tashkil qilib, kitoblardan nusxalar ko‘chirtiradi. Ushbu shaharda o‘qituvchilik qilgan boshqird Abbos Amantayev ham yangi usuldagi maktabda 1912-yildan e’tiboran o‘n yil ichida 400 ga yaqin mahalliy xalq bolalarini savodli qilgan edi.

Xonlik tugaganidan keyingi respublika davrida yana bir jadid ma’rifatparvari Hamza Hakimzoda ham Xo‘jayliga kelib pedagoglik faoliyatini olib bordi. Hamza 1921-yil noyabridan 1924-yil iyul oylarigacha Xiva shahri teatrida va Xo‘jayli tumanidagi maktabda faoliyat ko‘rsatgan. Xorazmdagi maktablar uchun o‘zi bilan Toshkent va Farg‘ona vodiysida nashr qilingan darslik va qo‘llanmalarni olib kelgan. Xorazm ta’lim sohasi tarixini Hamza Hakimzoda faoliyatisiz tasavvur qilish qiyin.

Hamza faoliyat ko‘rsatgan Xo‘jaylidagi maktab-internat aslida 1920-yilda tashkil qilingandi. Biroq ko‘p o‘tmay ushbu ta’lim maskani faoliyatida turli sabablar bilan uzilishlar bo‘ladi. Xivada teatrga asos solgan va o‘z davrining dovruqli jadidlaridan bo‘lgan Hamza san’atkorlar bilan Qo‘ng‘irot va Mo‘ynoq hududlarida bo‘lganida, ko‘nglida ushbu maktabni qaytadan yo‘lga qo‘yish istagi tug‘iladi. Bu hududlarda yetim bolalar qarovsiz yurishini ko‘rib, shoirda achinish hissi uyg‘ongandi. Qolaversa, respublika va ichki ishlar nozirligining ayrim rahbarlari bilan teatr sohasidagi dramalar bo‘yicha tushunmovchilik yuz bergandi. Shunday vaziyatda Xo‘jaylida to‘xtab qolgan maktabni qayta yo‘lga qo‘yish Hamza uchun oqilona yechim edi.

Shu alfozda, Hamza Hakimzoda 1923-yilning avgustida Xo‘jayliga kelib, ta’lim sohasidagi faoliyatini laridan foydalanilardi. Hamzada pedagoglik tajribasi bo‘lgani uchun o‘zining oldin nashr ettirgan darslik, qo‘llanma va badiiy asarlaridan ham darsda foydalanardi.

Hamza jadid ma’rifatparvari va ta’lim sohasida tajribali ustoz bo‘lgani bois, maktab uchun yangi bino barpo etish tashabbusi bilan chiqadi. U xalq orasida ma’rifatparvarlik g‘oyalarini yoyish uchun “Sharq oqshomlari” nomli milliy konsert va o‘yinlar o‘tkazishni yo‘lga qo‘yib, xalqdan berilgan xayriyalarni maktab binosiga sarflaydi. Shu tariqa Hamza Hakimzoda tomonidan yangi maktab binosi barpo etiladi. Maktabda kutubxonaga katta o‘rin ajratilgan bo‘lib, Hamza Chorjo‘y, Aralskdan kelib turadigan paroxodlar orqali boshqa hududlardan kitoblar, gazeta-jurnallar oldirishni ham yo‘lga qo‘yadi. 1923-yil kuzida Xiva shahridan 86 nomdagi kitoblarni olib keltiradi. Hamzaning hamkasblari sifatida To‘legen To‘leyev, Pir Qutlimurodov, Sharif Ahmadjonov kabi pedagoglar ham maktabda faoliyat ko‘rsatganini ta’kidlash joiz.

Hamza o‘quvchilarni o‘z tajribasidan kelib chiqib sinflarga taqsimlardi. Jumek O‘rumboyevning “Hamzaning Xo‘jayli internatidagi pedagoglik faoliyati” nomli kitobida shunday ma’lumotlar keltiriladi:

“Hamzaning maktabi to‘rt sinfdan: yukta sinf, ya’ni, nolinchi sinf, yarimincha sinf – bu birinchi gruppaning tayyorlov sinfi, birinchi sinf va ikkinchi sinflardan iborat edi. Hamza rahbarlik qilgan internatning yukta sinfida 1923-yilning oktyabrida 33 bola, yariminchi sinfda 14, birinchi sinfda 23, ikkinchi sinfda 9 bola bo‘lib, internat bo‘yicha 79 tarbiyalanuvchi bor edi. Maktabda o‘quv muddati garchi to‘rt yil bo‘lsa ham, asosiy sinflar, aytib o‘tilganidek, ikkita edi, xolos. Qolgan ikkita sinf esa asosiy sinflarning qismlari bo‘lib xizmat qilar edi.

1923-yilda bo‘lib o‘tgan umumrespublika o‘qituvchilar qurultoyida qabul qilingan nizom asosida Xorazm umumta’lim maktablari birinchi va ikkinchi bosqich maktablariga ajratilgan edi. Birinchi bosqich maktablar, shu qurultoyda qabul qilingan qarorga asosan, to‘rt yillik boshlang‘ich maktablar bo‘lib, bu toifadagi maktablar uchun dastur ham ishlab chiqilgan edi. 1923–1924-o‘quv yilida Xo‘jayli internati ham to‘rt sinfli birinchi bosqich maktabga aylantirilgan edi. Biroq hali Hamza mudir bo‘lib turgan paytlarda bu internatni oddiy birinchi bosqich maktablar qatoriga qo‘shish xato bo‘lur edi. Chunki Xo‘jayli internatida, birinchidan, oddiy birinchi bosqich maktablar uchun xos bo‘lmagan boshqa fanlar o‘qitilardi. Masalan, birinchi va ikkinchi sinflarda ona tili, arifmetika, hatto tabiatshunoslik ham o‘qitilardi. Uchinchi sinfdan boshlab esa fizika, geografiya, umumiy tarix va Xorazm tarixi, to‘rtinchi sinfdan Xorazm geografiyasi o‘qitilardi. Yuqori sinflarda geometriya, matematika, Xorazm tarixi fanlarini Hamzaning o‘zi o‘qitardi.

Ikkinchidan, Xo‘jayli internatida tarbiyalanuvchilarning qariyb yarmi 14-18 yashar o‘smirlardan iborat ediki, bu hol bolalarni respublikaning o‘rta bilim yurtlariga tezkorlik bilan tayyorlash vazifasini bajarishga yordam bergan. Masalan, 1923–1924-o‘quv yilida Hamzaning qo‘lida arifmetika, geometriya fanlaridan tahsil olgan, keyinchalik Qoraqalpog‘iston pedagogika instituti matematika kafedrasi dotsenti bo‘lib ishlagan Umar Buleshov shunday yozadi: “Hamza internatda arifmetika, geometriyadan bizga chuqur bilim bergan. Biz Xo‘jayli internatida tarbiya ko‘rgan olti o‘quvchi Xiva pedagogika texnikumiga respublikaning boshqa shaharlaridan kelgan o‘quvchilarga qaraganda ancha peshqadam edik”. Xo‘jayli internati o‘sha davrdagi birinchi bosqichli maktablar dasturlarida ko‘zda tutilganiga nisbatan ancha chuqurroq bilim berar edi. Shu sababli, bu maktab yuqoriroq toifadagi maktablar qatoriga qo‘shilardi”.

Hamzaning ta’lim sohasidagi faoliyati tez orada dovruq qozonib o‘z natijalarini bera boshlagach, Mang‘it, Qo‘ng‘irot, Ko‘hna Urganch hududlarida ham Xo‘jaylidagi singari ta’lim dargohlari tashkil etiladi va Hamzaning pedagogik tajribasi tatbiq etila boshlanadi. Negaki, Hamza Hakimzodaning nafaqat shoir, dramaturg, rejissyorlik, balki pedagoglik faoliyati ham jadidlar g‘oyalariga asoslangan edi.

Umuman olganda, Xo‘jayli, Qo‘ng‘irot, Chimboydagi jadid maktablari pedagoglari nafaqat ta’lim sohasining fidoyilari, balki o‘zlarining ijtimoiy-ma’rifiy faoliyati bilan jadidlar harakatida ham muhim nufuzga ega bo‘lishdi.

Ta’lim sohasidagi bu jarayon keyinchalik Qoraqalpog‘istonda turli sohalarda milliy kadrlar shakllanishiga sabab bo‘ldi. Vaqt o‘tib, hududda pedagog sifatida faoliyat ko‘rsatgan So‘fizoda va Hamza Hakimzoda O‘zbekistonda birinchi bo‘lib xalq yozuvchisi va xalq shoiri unvonlari bilan taqdirlandilar. Bu ham hududda intellektual kadrlar pedagoglik qilish bilan birga, ijodda ham o‘z davrining ilg‘or shaxslari bo‘lganini ko‘rsatadi.

Bir so‘z bilan aytganda, Qoraqalpog‘istondagi ta’lim rivojida Qo‘ng‘irot, Xo‘jayli, Chimboydagi jadid maktablari o‘qituvchilarining o‘rni katta bo‘lgan va bu pedagogika hamda jadid harakati tarixidan munosib joy olgan moziyning yorqin sahifalaridir.

Umid BEKMUHAMMAD,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent



Vatan, vatan deya jonim tanimdan o‘lsa ravon,
Banga na g‘am, qolur avlodima uy-u vatanim.
Abdulla AVLONIY

MEROS



VOSILIY VOSILIDA

Marhamat tumanida davlat tasarrufidagi tuman axborot-kutubxona markazidan tashqari xususiy kutubxonalar ham talay. Ulardan biri Maxdum Vosiliy nomidagi Madaniy meros markazidir. Markaz mullo Hasanjon (Maxdum) Vosiliy domla hayoti davomida foydalangan ashyolar hamda ikki mingdan ortiq adabiyotlardan tashkil topgan.

Mulla Hasanjon Vosiliy 1889-yili Qorabog‘ish qishlog‘ida tug‘ilgan. Mir Arab madrasasida tahsil olgan. Fors va arab tilida ilmiy-badiiy asarlar yozgan. Ayniqsa, tabobat ilmidagi asarlari mashhur. Vosiliy hazrat o‘tkir aqli sababli, el-yurt o‘rtasida maslahat so‘raladigan ulug‘lardan bo‘lgan.

Maxdum Vosiliyning uy-muzeyidagi kutubxonada uch asr avval yozilgan qo‘lyozma va toshbosma adabiyotlar, kitoblar ham mavjud. Ko‘plar qo‘lidagi kitoblarni qo‘rqqanidan suvga oqizib yuborgan davrlarda ham, Vosiliy hazrat hayotini o‘rtaga qo‘yib ularni saqlab qolgan. Asarlar orasida Alisher Navoiy “Xamsa”sining 1700-yilda ko‘chirilgan nusxasi ham sifatli saqlanib qolgan. Yana bu yerda Marg‘iloniyning “Fidoiy” kitobi hamda avliyolar shajarasi qo‘lyozmasi saqlanmoqda, 1640-yilda yozilgan ushbu kitobda 380 dan ortiq avliyolar nomlari keltirilgan. “Vodiy tarixi” kitobi O‘zbekistonda ikki nusxada bo‘lib, biri Sharqshunoslik universiteti qo‘lyozmalar fondida, ikkinchisi shu kutubxonada mavjud. Mulla Hasanxon Maxdumning bir nechta qo‘lyozma kitoblarini o‘g‘li Mahmud Hasaniy nashrdan chiqarib, xalqimizga qaytardi. Bundan tashqari, bu yerda tarix fanlari doktori Mahmud Hasaniyning bir qancha kitoblari ham jamlangan.

Bugun yurtimiz bo‘ylab jahoniy miqyosdagi muzeylar tashkil qilinmoqda. Bu juda yaxshi. Lekin bu dargohlarga borish, ulardan foydalanish va ilm olish uchun, avvalo, hududlardagi muzeylar bilan tanishish, tasavvur hosil qilish foydalidir. Biz ham yurtdoshlarimizni Maxdum Vosiliy nomidagi Madaniy meros markazida kutib qolamiz.

Gullolaxon ABDUG‘ANIYEVA,
Marhamat tuman axborot-kutubxona markazi bibliografi



SAN’AT OLAMI

“Umidga suyangayman”

Taniqli aktrisa Adolat KIMSANOVA bilan suhbat



– Assalomu alaykum, Adolat opa! Suhbatdan oldingi gurungda “matbuot uchun emas” deb, dil ochdingiz. Eshita turib, beixtiyor O‘zbekiston xalq shoiri Halima Xudoyberdiyevaning “So‘ldirganlar, qasddan gullab-o‘sganman men… O‘z boshimni o‘zim silab o‘sganman men” degan satrlari yodimga tushdi. Ismingiz tantanavor eshitilsada, ortida bir mahzunlik yashirinligini his qildim. Suhbatni ismingiz tarixidan boshlasak, nima deysiz?

– Avvalo suhbatga taklif qilganingiz uchun tashakkur. Munosib ko‘rib, dil so‘zlarimni odamlarga yetkazmoqchi ekansiz, bundan boshim osmonga yetdi, ko‘nglim tog‘day o‘sdi. Inson, ayniqsa, san’atkor bir og‘iz shirin so‘zning, bir chimdim e’tiborning gadosi bo‘ladi.

Ismga keladigan bo‘lsak, bu otam bilan bog‘liq. Oilamiz ziyolilar oilasi edi. Otam davlatning maxsus xizmatlarida faoliyat yuritgan. Sovet davrida hokimiyatning kuch ishlatar tizimi ichida turib, yurtdoshlarimizga qayishadigan kadr bo‘lgan ekan. Buning ortidan bir necha bor ogohlantirish va dakkilar eshitgan. O‘tgan asrning 30-yillarida “katta terror” amalga oshirilgan. Biroq bu bilan mustamlakachilar to‘xtamagan. 50-yillarda qatag‘onning ikkinchi to‘lqini ko‘tarilgan. Ana shu to‘lqin otamni ham oilamiz bag‘ridan yulib ketadi.

Otamning asl ismi Muhammadziyo Ortiqov. Lekin Muhammad qismi kerak emas, deb oyoq tirab olgan ekan yuqoridagilar. Shunda u kishi Ziyodulla ismini tanlabdi, qarshilik qilganlar ham rozi bo‘libdi. Holbuki, bu ism avvalgidan ko‘ra kengroq ma’noga ega... Otamni necha o‘n yillar davomida erkin tanishtira olmaganman. Mana, hozir ham shuning asorati bor-da, javob yarmida tilga olyapman nomini.

– Opa, bugun qatag‘on qurbonlari nomi oqlanib, tarix xolislik bilan o‘rganilmoqda. Bemalol gapirishingiz mumkin.

– To‘g‘ri aytasiz. Bu o‘zgarishlar uchun davlatimizdan minnatdorman. Erkin Vohidov yozgan-ku: “Men, axir, qutlug‘ bu so‘zni Yigirma yil olmadim tilga, Yigirma yil saqladim dilda”. 1949-yil 9-martda otam qatag‘on domiga tortiladi. Uch kun avval navbatdagi o‘g‘li tug‘ilgan ota-onaning quvonchiga soya tushadi. Onam bechora yaxshi umid bilan akamga Ozod deb ism qo‘yadi. Otamdan esa yillar davomida dom-darak bo‘lmaydi. Onam qaysi eshikka bosh urib borsa, oldiga solib haydashadi, o‘zini ham qamab qo‘yish bilan qo‘rqitishadi. Dardini ichiga yutib yashagan ekan mehribonim. Nihoyat, Stalin o‘limidan keyin dadamdan birinchi xat keladi. Yuborilgan manzil – Sharg‘un ko‘mir koni. Sovetlar davlatida nisbatan iliqlik boshlangach, qatag‘on qilinganlar nomi oqlanadi, asirlikdagilar asta-sekin uyiga qayta boshlaydi. Otam ham ular safida edi. Oradan bir yil o‘tib, men tug‘ilganman. Azbaroyi ozodlik shodligidan, “mana, dunyoda adolat bor ekan”, deb ismimni Adolat qo‘yishgan.

Vaholanki, otamning qirchillama yillari turma va mehnat lagerlarida sob bo‘lgandi. Qaytgach ham, bir necha yil ko‘z ochirishga qo‘yishmaydi. Oxiri, Moldovaga ketib, tazyiqlardan biroz qutuladi. 1978-yilda Vatanga qaytib, bir yildan keyin vafot etadi. Mana, sovetlarning “adolati”!

– Oila mavzusidan uzoqlashmaymiz. Kimdir biladi, kimdir yo‘q, siz O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Mashrab Kimsanovning rafiqasisiz. Ikki san’atkorning oila bo‘lib yashashi murakkab bo‘lmaganmi? Mashrab aka vafotidan oldin og‘ir xastalikka chalinib, bir necha yil to‘shakka mixlanib qolganini ham eshitganman…

– Men Mashrab akam bilan tanishib, gaplashib, u kishining izhoriga rozilik berganimdayoq, oldindagi barcha mashaqqatlarni bo‘ynimga olganman. Keyin, bilasizmi, sevgan odamingiz yoningizda bo‘lsa, qiyinchiliklar haqida o‘ylamas ekansiz. Minnat qilish yo arzi hol emas: xoh sog‘ bo‘lsin, xoh xasta bo‘lsin, erimga qilgan xizmatlarimga ming roziman. Ochig‘i, kezi kelsa ona ham bolasini bu qadar parvarishlamaydi. Lekin men ham ishlab, ham ro‘zg‘orni epladim. Nolimayman. Eng qiyini qachon bo‘ldi, desangiz, turmush o‘rtog‘im vafot etganda, deb javob beraman. Tirikligining o‘zi madorim edi-da.

Avvallari “O‘zbekkino” studiyasida suratga olingan filmlardagi rolimiz uchun gonorar olardik. Maosh bo‘lmagan. Teatr aktyorlarida doimiy oylik bo‘lib, ishidan ortsa kinoga ham tushardi. Kinoaktyorlar esa gonorarga qarab turardi. Mustaqillik avvalida studiyalar yopilib ketdi. Oila ta’minoti uchma-uch bo‘lib qoldi. Shunda ham Mashrab aka bilan amalladik. Tashlab ketmadik sohani.

So‘nggi yillardagi islohotlar kino san’atida ham yaqqol sezildi. Moliyalashtirish masalalari ijobiy hal etildi. Lekin sinovli yillarda ijod qilganlar doim ham eslanmadi. Na yo‘qlovlarda, na siylovlarda ismimiz ro‘yxatlarda uchramadi. Ba’zan, asosiysi, muxlislar mehri, deyishadi. Albatta, muxlislar omon bo‘lsin, shular borki, biz ijod qilamiz. Lekin hamma gap shunda bo‘lganida, “Oskar” ta’sis etilarmidi, faxriy unvon va ordenlar berilarmidi? Insonga nima kerak? Mehnatining samarasini ko‘rish uchun e’tirof kerak. E’tirof bo‘lsa, san’atkorning yana ijod qilgisi keladi. Har gal mukofotlar haqida farmonlar chiqsa, albatta, san’at ahliga e’tibor berilgan bo‘ladi. Bu yil hatto alohida farmon ham qabul qilindi. Istardimki, vazirlik, ijodiy uyushmalar doirasida aktyorlar saralanayotganda, o‘z vaqtida mehnat qilgan, turli sabablar bilan chetga chiqib qolganlar ham unutilmasa...

– Turmush o‘rtog‘ingizning otdoshi, ulug‘ shoir Mashrab yozgan-ku: “Qo‘y sabr toshin qarab bardoshima”.

– Ha. Yana, bu ayol juda noshukur, izzattalab ekan, demang. Ijobiy o‘zgarishlar haqida ham soatlab gapirish mumkin. Masalan, kino sanoati yurtimizda rivojlanib boryapti. Bu bizni ham chetlab o‘tmadi. Yaqinda “Ayol formulasi” filmida o‘ynadim. Premyerasi endi o‘tkaziladi. Davlatimiz tomonidan bizni rozi qiladigan darajada haq to‘landi. Milliy kinoga shukuh qaytib kelyapti. Afsuski, bu kunlarni ko‘pchilik ko‘rmadi. Jumladan, Mashrab akam ham. Yaxshi kinoni yosh boladay kutib o‘tdi shu inson. Siqilib qolganini ko‘rib, teatrga ishga o‘tishni ham aytib ko‘rdim. Sahnada boshidan xizmat qilmadik, endi borsak to‘g‘ri kelmas, deb andisha qildi. “Kino yaxshi bo‘lib ketadi. Men ishonaman. Hali ko‘p yaxshi rollar o‘ynaymiz”, deb tinchlantirardi meni. O‘zini boshqa ishda tasavvur qilolmasdi-da.

– O‘sha kechirgan qiyinchiliklaringiz davrida biror joyga murojaat qilib ko‘rdingizmi?

– Yo‘q. Do‘st-yorlar ham, sohaning kattalari ham turish-turmushimizni bilardi. Birovdan xafa bo‘ladigan zamon emas edi. Tizimda tartib bo‘lmagan, deb o‘ylayman. Hatto, bir gal kinoning “katta”sini kutib qabulxonasida ikki soat o‘tirganman. Takliflarimni aytmoqchi edim, yordam so‘rashga bormagandim. Kuta-kuta kirsam, bugun gaplasha olmayman, delegatsiya kelishi kerak, dedi. Shuni avvalroq aytsa bo‘lardi-ku. Qarang, qanaqa befarq odamlar bor. Bu kichik epizod, lekin unda butun kartina holidan so‘z ketadi. Shu bois ham, kinematografiya tizimi yangilandi-da. Bu yog‘iga yana ham yaxshi bo‘lishiga ishonamiz.

– Adolat opa, aktrisa bo‘lmaganimda yaxshiroq yasharmidim, degan xayol ham kelganmi?

– Negadir hech shunaqa xayolga bormaganman. Chunki men kasbimning bor achchiq-chuchugini bilib tanlaganman. Rol o‘ynashdan boshqa ish qo‘limdan kelmagani uchun emas. Hamma ish qo‘limdan keladi, hunarim bor. O‘sha qiyin paytlar bo‘lganda, bolalarni halol rizq bilan boqay, deb harakat qilganman. Lekin sira aktyorligimni unutmaganman.

– Muxlislar Sizni “Charxpalak”, “Zanjir” seriallari, “Notanish polvon”, “Maftuna”, “Osmondagi bolalar”, “Umid”, “Dilor, Dilor... Dil va or” kabi filmlardagi rollaringiz orqali bilishadi. Holbuki, uzoq yillar Yosh tomoshabinlar teatrida faoliyat yuritgansiz. Hayotda shunday holatlar ham bo‘lib turar ekan-da. Quvonarlisi, talantingiz nafaqat O‘zbekistonda, balki xorijda ham talabgir bo‘lib turibdi. Yaqinda Malayziyaning “Pengin Hijrah” (“O‘zgarish sari”) filmida suratga tushganingiz haqida eshitdik.

– Ha, san’at shunday olam ekan, qaysi rol yoki epizod xalq qalbidan joy olishini bilolmaymiz. Siz aytgan film dolzarb mavzuda. Nojoiz ishga qo‘l urib, xato qilgan qizni aqlli hamsaboq yigiti to‘g‘ri yo‘lga boshlashi hikoya qilinadi. Rejissyor Jastis Arimba butun dunyoni qiynayotgan Internet va yoshlar, axloq va ommaviy madaniyat masalalarini ko‘rsatib berishga harakat qilgan. Filmga O‘zbekistonga sayohat epizodlari kiritilgan. Toshkent, Samarqand va Buxoro shaharlarida suratga olish jarayonlari olib borildi. Tarixiy qadamjolarimiz kinotasmaga muhrlandi. Bu ham o‘ziga xos targ‘ibot yo‘li-da. Shu kinokartinada buvi rolini berishdi. Qizig‘i, ular o‘zbekistonlik aktrisa tanlashda ijtimoiy tarmoqlarga joylangan serial, film va telenovellalarimizni ko‘rib chiqibdi. Kaminaning ijrosi ma’qul kelgandir-da. Buyam o‘ziga xos tajriba bo‘ldi.

Rolni o‘ynadim, jamoa juda yaxshi qabul qildi. Meni premyeraga ham taklif qilishdi. “Voy, uzr, men unaqa boy aktrisa emasman, xorijga borib-kelish men uchun qiyinroq bo‘ladi”, desam, ular: “Hech narsangiz kerak emas. Faqat roziligingiz kerak. Hamma xarajatlar bizning bo‘ynimizda”, deyishdi. Shundan so‘ng premyeralarni o‘tkazib, sahnalariga chiqib, o‘sha yerda xalq bilan ijodiy uchrashuvlar o‘tkazib keldim. Hayotda kitoblardagiday kutilmagan voqealar ham bo‘lar ekan.

Men yozuvchi-shoirlar bilan ham yaxshi munosabatdaman. Mutolaani yaxshi ko‘raman. Abdulla Oripovning “Birinchi muhabbatim” she’rida beshinchi band bor: “Yo‘lin yo‘qotsa odam, muhabbatga suyangay”, deb boshlanadi. Hayot va ruhiyatning chuqur manzarasi aks etgan. Men shuni o‘zimga moslab aytamanki, umr bo‘yi umidga suyanib yashadim. Bugun ham shunday.

– Adolat opa, hayotning o‘z adolati bor, deyishadi-ku. Faqat u biz o‘ylagan mezonlar bilan emas, azaliyat qonuniyatlari bilan ro‘yobga chiqadi. Ne baxtki, bugun mamlakatimizda adabiyot, san’at va madaniyat xodimlari qadr topayotgan davrda Siz bilan suhbatlashib turibmiz. Sizning ko‘p yillik samarali ijodingiz yosh havasmand san’atkorlar uchun o‘ziga xos saboq bo‘lib xizmat qilishiga ishonchimiz komil.

Zarnigor IBROHIMOVA suhbatlashdi.

TARMOQLARDA NIMA GAP?

UYG‘ONING, ODAMLAR!

Yer yuzida 220 dan ortiq millat va xalq bor. Biroq ularning hech biri biz kabi 500 kishilik to‘y, to‘ydan keyin “charlar”, “otako‘rdi”, “kelinko‘rdi”, yana allambalo marosimlar, udumlar qilmaydi. Yer yuzidagi hech bir millat ertalab turib nahorda oshga bormaydi; kelin-kuyovning uyini jihozlar, maishiy texnikalar bilan to‘ldirib, parda, gilam, qalin, sarpo-suruq qilmaydi.



Aqlini yegan milliarder ham qiz chiqarsa yoxud o‘g‘il uylantirsa, to‘yda pul sochmaydi. To‘yxonada, katta monitorda “Love story” (muhabbat tarixi) kabi bema’ni lavha qo‘ygan biror inglizni ko‘rganim yo‘q. Nihoyat, 220 dan ortiq millat va xalqning birortasida 500-600 kishilik to‘yxonaning o‘zi yo‘q.

Uyg‘oning, odamlar! Xalqni, davlatni to‘ylarning kattaligi, dabdabali yo shohonaligi emas, ilm-ma’rifati, aql-u salohiyati, intellektual avlodi yuksaltiradi.

Hurmatli tadbirkorlar! Yurtga 1000 kishilik to‘yxona emas, 500 o‘rinli maktab quring, 300 sig‘imli kutubxona, 100 o‘rinli bolalar bog‘chasi quring. Kitoblar olib bering, maktablarni gazeta-jurnallarga obuna qildirib bering – homiylik qiling.

Ota-onalar! Yoshlarning uyini maishiy texnikalar bilan emas, ularning ongini ma’naviy “texnikalar” bilan boyiting. Kelinlik, kuyovlik, oila ilmini, ro‘zg‘or tutish ilmini o‘rgating. Ustaga bering, hunar o‘rgating.

Xalqqa “Love story” emas, ilm kerak. To‘yxona emas, maktab kerak.

Pivo festivallari emas, ma’rifat, madaniyat, axloq kerak.

Erkinjon YARASHEV
Facebook

TAASSUROT

Shu yil 11–17-sentyabr kunlari Rossiyaning Yekaterinburg shahrida o‘tgan Butunjahon yoshlar festivalida 191 davlatdan delegatlar jam bo‘ldi. Bunday keng miqyosli anjumanda ishtirok etish men uchun nafaqat yangi tanishuv va bilimlar, balki turli xalqlarning bir-birini san’at va madaniyat orqali qanday anglashini bevosita kuzatish imkoniyatini berdi.



SAN’ATNING KUCHI

Men turli millatlar o‘rtasidagi muloqot faqat so‘z bilan cheklanmasligiga guvoh bo‘ldim. Milliy raqslar, musiqa, liboslar, imo-ishoralar va samimiy kayfiyat orqali har bir delegat o‘z mamlakati va madaniyati haqida hikoya qila oldi. Ba’zan bir kuy yoki raqs uzun suhbatdan ham ko‘proq ma’no yetkazardi.

Men tasviriy san’at vakili bo‘lsam-da, festival davomida faqat o‘z yo‘nalishim bilan cheklanmadim. Xalqaro yoshlar siyosati, til, jurnalistika va madaniyatlararo muloqotga bag‘ishlangan sessiyalarda faol qatnashdim.

Qiziqarli madaniy kashfiyotlarimdan biri – chanqovuzga o‘xshash cholg‘ularning boshqa qit’alarda ham mavjud ekanini ko‘rdim. Ularning nomlari, shakli va ijro usullari boshqacha, ayrimlari hayvon shoxlaridan yasalgan edi. Bir-biridan uzoqda yashagan xalqlarda ham o‘xshash madaniy shakllar paydo bo‘lishi mumkinligi meni hayratga soldi.

Turli qit’alardan kelgan yoshlar bilan muloqot davomida aniq his qildimki, o‘zaro anglash va yaqinlik ba’zan bir cholg‘u, bir so‘z, bir raqs yoki oddiy bir tabassumdan ham boshlanar ekan. Meni eng ko‘p quvonchga solgan jihat: tengdoshlarimning Vatanim tarixi, madaniyati va sportiga qiziqishlari bo‘ldi. Ba’zi ma’lumotlarni ular mendan ham yaxshiroq bilishlari o‘z tariximizni teranroq o‘rganishim kerakligini uqtirdi. Xullas, bu safardan shu safar ham “bir bosh o‘sib” qaytdim.

Shamsiqamar SUYUNOVA,
talaba

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Bosh muharrir:
Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Adadi – 18 431
Shundan:
Kirill yozuvida – 6 861
Lotin yozuvida – 11 570
Media kuzatuvchilar – 91 527
Buyurtma: G – 940
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6

Mas’ul kotib: Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Gulchehra Umarova

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy

Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:00

Sotuvda narxi erkin.

www.jadid.uz

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI